

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti

O‘zbek tili yo‘nalishi

4-kurs 447 guruh talabasi

Abdurahmonova Musharrafning

«O‘zbek adabiyotida mistifikatsiya» (Omon Muxtor va

Anvar Obidjon asarlari misolida)

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Filologiya fanlari nomzodi

Z.RAHIMOV

Farg‘ona 2013

Mundarija

Kirish.....	3
I bob. Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanidagi Abdulla	
 Hakim mashq daftarining badiiy-g’oyaviy xususiyatlari.....	11
II bob. Anvar Obidjonning “Usta Gulmat” obrazi adabiy	
 mistifikatsiya sifatida.....	34
Xulosa.....	49
Adabiyotlar ro’yxati.....	51

Kirish

O'zbekiston porloq istiqbol sari bosqichma-bosqich ildam qadam tashlar ekan, bu odimlar xayrli bo'lishi bilan birga juda mas'uliyatli va mashaqqatlidir, ko'zlangan manzillarga yetish yo'lida turli to'siqlar, kechiktirilmay hal etilishi lozim bo'lgan ko'plab muammolar uchrashi tabiiy. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bozor munosabatlariga o'tish – hayotiy yetuklik va sabrmatonatni sinovdan o'tkazuvchi o'ziga xos imtihondir. Bunda ma'naviy bo'shliqqa yoki ko'ngliga kelgan shuni qilaverishga berilishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli biz ma'naviy-ruhiy tiklanish va poklanish muammolariga alohida ahamiyat beryapmiz"¹.

Demak, juda ko'p muammolarning ijobiy hal etilishida, jumladan, ijtimoiy taraqqiyot sohalarining rivojida kishilarimiz ruhiyatidagi ma'naviy o'zgarish, yuksalish va poklanishning ahamiyati alohida qimmatga egadir. "Zero, biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otgani bilan baholaymiz"².

Keyingi yillarda ma'naviyat masalalari respublika Prezidentining, butun jamiyatchilikning diqqat markazida turgani bejiz emas. Odamlarni ruhan poklamasdan, necha o'n yillar davomida tomir otgan ma'naviy nosozliklarni bartaraf qilmasdan turib jahon hamjamiyatiga qo'shilishda jiddiy muvaffaqiyatlarga erishish qiyin, faqat ma'naviy sog'lom, ruhan kuchli jamiyatgina ulkan islohatlarni amalga oshira oladi.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta.

Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob istedodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas

¹ Karimov I.A "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida" – T. "O'zbekiston", 1995, 141-bet

² Karimov I.A. Kelajakni jasoratli odamlar quradi. "Turkiston" gazetasi, 1999 yil, 17 fevral soni.

asarlar yaratgan buyuk so'z sanatkorlari – ularni barchasining nomini zikr etish albatta ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi – yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan mustaqillik yillaridayurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z xosilini berayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi.

Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam ahlining ijodiy ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib berganini yana bir bor ko'rsatadi. Deylik hozirgi paytda tarixiy mavzuni yoritishda – bu Imom Buxoriy yoki Imom Termiziy bo'ladimi, Jaloliddin Manguberdi yoki Amir Temur siymosini yaratish bo'ladimi, olis va yaqin o'tmishimizning ochilmagan sahifalarini aks ettirish bo'ladimi – buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li tasvirlangan ko'plab asarlar dunyoga kelmoqda.

Hammamiz yahshi tushunamiz – adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangidan-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir. Keyingi yillarda ana shunday ruh bilan yo'g'rilgan bir qancha she'riy asarlar paydo bo'layotganini mamnuniyat bilan ta'kidlash joiz.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o'rin egallab borayotgan O'zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'analariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda.

Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do'stu birodarlarimiz, jahon jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning san'atimiz orqali o'zini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi.

Agar biz O'zbekistonimizni dumyoga tarannum etmoqchi, unining qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalo buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.nega deganda, ulug adib Cho'lpon aytganidek "Adabiyot yashasa – millat yashaydi"³.

Mustaqillik davrida yuzaga kelgan ijtimoiy muhit, o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyoti uchun ham yetarli sharoit yaratdi, ushbu fan ijtimoiy va ma'daniy hayotning turli sohalarini rivojlantirishga tadbqiq etiladigan o'ziga hos amaliy ko'rsatmalar yaratish ma'suliyatini oldi.

Badiiy tasvir usullaridan biri bo'lgan adabiy mistifikatsiya o'zbek adabiyotshunosligida yetarli o'rganilmagan masaladir.

O'zbek adabiyotidagi mistifikatsiya hodisasining badiiy talqinlari xususida A.Rahimov, U.Normatov, Z.Rahimov kabi olimlarning qiziqarli ilmiy mulohazalari mavjud.

Shunday ekan "Mistifikatsiya" yunoncha – "mystes" – sirga oshno, "tacio" – qilaman degan ma'noni anglatadi.

Muallif yashirin qolishga intilishi jihatidan adabiiy mistifikatsiya anonym (imzosiz e'lon qilingan yoki tarqalgan asar) va taxallus qo'llash (ya'ni yashirin qolish maqsadida asarni taxallus bilan e'lon qilishga yaqin). Ulardan farqli tomoni shundan iboratki , adabiy mistifikatsiyada asar nisbatan berilayotgan muallifning uslubi, ruhiyati, dunyoqarashi va shu kabilar bilan bog'liq.

Individual jihatlarni yaratish orqali real muallifdan tamom o'zga muallif obrazi vujudga keltiradi.

Adabiy mistifikatsiya badiiy tasvir usullaridan bo'lib, asarning muayyan maqsaddan kelib chiqqan holda hodisaga sirli tus berish, yo'q narsani bor deb o'quvchini ishontirishga urinishdir.

Yozuvchi ko'pincha asar voqealarini biror hayotiy personaj tomonidan hayotda aynan bo'lib o'tgan hodisa tarzida hikoya qiladi.

³ I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.Ma'naviyat.2008. 138-139-140 bet.

Badiiy tasvir usullaridan biri bo'lgan adabiy mistifikatsiya o'zbek adabiyotshunosligida jiddiy o'rganilmagan masaladir.

Biron narsaga ataylab sirli tus berish, yo'q narsani bor deyish, o'zi yozgan narsaga boshqa odam yozgan deb ishon tirishga urinish mistifikatsiya deyiladi.

Masalan, ko'pincha senzura nazoratidan yashirinish yoki shumlik niyatida muallif o'z asarini boshqa tarixiy shaxs yoki to'qima odam nomidan e'lon qilinadi.

Jumladan fransuz adibi Prosper Merime o'zining ilk asarlarini aslida hayotda bo'lmagan soxta aktrisa Klara Gazul nomi bilan nashr ettirgan, o'zi yozgan she'rlarni, odamlar og'zidan yozib olingan slavyan xalqlari qo'shiqlari deb e'lon qilgan.

Bunga chippa-chin ishongan A.S.Pushkin ularga ergashib she'rlar yozgan. Shotland shoiri Makferson o'z she'rlarini "Ossian qo'shiqlari" deb o'rta asrda yo'q baxshi nomidan nashr ergan. O'tgan asrda bir qator ilg'or rus ziyolilari o'zlarining hajviy asarlarini Kozma Prutkov degan yo'q odam nomidan e'lon qilganlar. Kaltafahm Kozma Prutkov niqobi chor hukumati siyosiy illatlarini mazah qilish uchun qulay vosita hizmatini bajargan. Ba'zi bir olimlar Makfersondan keyin 100 yildan keyin ham Ossian qo'shiqlarining haqiqiylikini isbotlashga urinishgan. Ayrim soxta nusxalarning fosh qilinishi siyosiy tendensiyalar tufayli qiyinlashgan. Xususan, "Kraledvor qo'lyozmalari" yuzasidan janjal XIX asrda ijtimoiy siyosiy harakat tusini olishi natijasida ba'zi bir olimlar chex xalqi harakati tendensiyasini bo'shashtirishni xohlamay, o'z fikrlaridan qaytishgan, skeptiklar esa antipatriotizm da ayblanganlar.

Soxtalashtirish faqat 70-yildan keyingina isbotlandi. I.I.Sreznevskiy va F.I.Buslaev kabi yirik olimlar ham o'zlari yaratgan ishlarida o'zlari bilmagan holda soxta materiallardan foydalanganliklari natijasida adabiy mistifikatsiyaning qurboni bo'lganlar.

Adabiy mistifikatsiya ko'pincha memuar janrida uchraydi. Masalan; "Письма и замиски Оммер де-Гелль" (Ommer de-Gellning maktub qaydlari) P.P.Tyazemskiy tomonidan to'qilgan. A.O.Smirnova – Rossetning yozishmalari

qizi tomonidan ijod qilingan. Mistifikatsiya matn variantlari buyuk adabiy asarlarning noma'lum qismi sifatida ham ijod qilingan.

D.N.Zuev 1897-yilda Pushkinning "Suv parisi" asari tugallanmasini e'lon qiladi. U kishilarni ishontirish uchun bu parchani 14 yoshida Pushkinning o'zidan eshitgan degan dalilni keltiradi. Adabiy mistifikatsiya turlaridan biri – original asarni tarjima deb berish.

Germaniyada va Fransiyada V.Skott va F.Kuper romanlarining soxta tarjimalari vujudga kelgan.

Shimoliy Kavkazning oz sonli xalqlaridan chiqqan yozuvchilar o'z asarlarini rus tilda yozgan bo'lishlariga qaramasdan, ular Moskvada rus tilida tarjima tamg'asi ostida nashr etilgan.

Bu asarlar yozuvchilarning o'z ona tillarida aslida tarjima qilinib nashr etilgan. So'z san'atida adabiy mistifikatsiya, ayni paytda, ham ijobiy, ham salbiy hodisa hisoblanadi.

Salbiy hodisalar sirasiga kiruvchi soxta adabiy mistifikatsiya na'munlari tahlil qilishning barcha usullari vositasida fosh qilinadi. Tahlil qilishda shu narsa ma'lum bo'ladiki, mistifikatsiya qiluvchi o'z tendensiozligini namoyon qilayotib, kimning asariga nisbat berayotgan bo'lsa, o'sha muallifni deformatsiya qiladi, natijada uning dunyoqarashi hamda amaliy maqsadi namoyon bo'ladi.

Adabiy mistifikatsiyani o'rganish filologik tadqiqotlar metodologik rivojlanishiga olib keladi. "Suv parisining tugallanmasi", F.E.Korshning "Pushin" "Rusalkasi" tugallanmasining haqiqiyliги masalasining taftishi sababchi bo'ladi.

Adabiy mistifikatsiya fan tomonidan o'tmishning yodgorligi, adabiyotdagi o'ziga xos turning na'munasi sifatida tushuniladi.

X.Hamzaning Komil Yashin tomonidan yaratilgan "Boy ila xizmatchi" dramasi adabiy mistifikatsiyaning bir ko'rinishidir. Drama o'zbek adabiyotida Hamza shaxsi suniy ravishda ko'klarga ko'tarila boshlagan yillarda K.Yashin tomonidan tamoman qaytadan yozib chiqilgan, chunki pyesaning asl nusxasi saqlanib qolmagan. 1968-yilda nashr etilgan "O'zbek sovet adabiyoti tarixi" kitobida aytilishicha K.Yashin asar matnini tiklashda "Boy ila xizmatchi"ning mavjud

nusxasi, 1919-1920 yillarda xamza boshchiligida o'lka musulmon siyosiy truppasi tarafidan sahna qo'yilgan vaqtlarida chiqarilgan teatr afishalaidagi ma'lumotlar va asarni o'sha vaqtlardagi sahnada bevosita qatnashgan va asosiy rolarni ijro etgan artistlar Mariya Kuznesova, Mirshohid Mirqobilov, Muhiddin qori Yoqubov va boshqalarning xotiralariga tayangan.

Ammo afishalarda asar mazmuni emas, balki Sibir sahnasining qisqa mazmuni bo'lgan xolos. Asar matniga kelsak, Hamzadan "Boy ila Xizmatchi" dramasidan bir epizodni tasvirlovchi 3-4 betgina matn qolgan. K.Yashin esa yuqoridagi ma'lumotlarni kitobxonni ishontirish uchun keltiradi. Aslida esa u suflyor nusxasidan foydalanilgan, suflyor pyesa mazmunini esda qolganicha yozib bergan, ammo ko'p gaplar suflyorning gaplari bo'lib, bu o'rinda suflyor tomonidan ham mistifikatsiya bo'lgan.

Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romanida Juzjoniyning kundaliklari beriladi. Bu kundalik bir o'qituvchi qo'lida saqlangan bo'lib, go'yo adib talabalik yillarida uni o'z ko'zlari bilan ko'rgan va o'qigan emish. Ammo u o'qishni bitirib borguncha haligi o'qituvchi vafot etgan va qo'lyozmalarning taqdiri noma'lum bo'lib qolavergan.

Yozuvchi bu kundalik vositasida kitobxonni shu voqea bo'lgan deb ishontirmoqchi bo'ladi va ishontiradi ham. Bu yerda kundalik ijobiy obrazni yechishda yozuvchi tomonidan qo'llanilgan badiiy usuldir.

Romanda kundalik to'rt joyda uchraydi. Kundalikning markazida buyuk alloma va hakim Ibn Sino turadi. U tabiatan o'z so'zida qa'tiy turadigan har qanday hollarda ham ahdidan qah'ytmaydigan shaxs. Quyidagi misol bunga yaqqol dalildir:

Hamadon hokimi Alouddavlardan chopar keladi va shayxni saroyga olib ketadi. Ma'lum bo'lishicha, G'azna hokimi Sulton Mahmud G'aznaviyning Hamadonga yuborgan elchisi Ibn Sinoni yerning tagidan bo'lsa ham topib, zudlik bilan G'aznaga olib kelish to'g'risida sultonning farmonini keltiradi. Bundan qo'rqib ketgan Alouddavla Ibn Sino bilan maslahatlashadi. Shayx G'aznaga borishdan

bosh tortadi, sarsonu-sargardonliklarga, xoru-zorliklarga mubtalo bo'lsada, zolim shoxni davolamaslikga ahd qiladi.

Qarshisida 2 yo'l: yo yovuz sultonni davolab oily martabaga ega bo'lish, yo davoalshdan bosh tortganligi uchun o'limga nahkum etilish. U hech ikkilanmay ikkinchi yo'lni tanlaydi. Ulug' hakimga xos bu o'jarlikning bu ko'rinishida yovuzlikga nafrat tuy'g'usi namoyon bo'ladi. Yozuvchi kundalikda tasvirlangan Ibn Sinoning darbadarlikda, quvg'inga hayot kechirishi bilan jazosini tortmagan makkor, o'zini hazrat Ibn Ibn Sino deb hammani, hatto sulton salotinni ham ibn Shahvoniy obrazlarini qiyoslaydi.

Yozuvchi bu va unga o'xshash boshqa misollar orqali o'sha zamon zaylini, uning qabohatlarini, fisqu – fujurlarini ko'rsatishga harakat qiladi.

Sulton G'aznaviy yillar davomida Ibn Sinoni kutadi, jon talvasasida hakimni toptirish uchun zulm qiladi. Shu munosabat bilan saroyda turli mojoralar avj oladi.

Bu yerda saroy amaldorlarining shohga va o'zaro bir-biriga xiyonati, bir-birini payini qirqish, ig'vo bilan qatl ettirishgacha borishlari tamomila tabiiy holga aylanadi.

Mansabdorlar mavjud bo'lmagan kundalikni yozuvchining Juzjoniylar nomidan borishi, ya'ni mistikifatsiya Ibn Sino xarakterini ochishda juda o'rinli ishlatilgan.

Mistikifatsiya yo'li bilan yaratilgan Juzjoniylar kundaligi asar ruhiga chuqur singdirilgan. Shuning uchun ham asarda ahamiyati benihoya kattadir.

Xullas, o'zbek adabiyotida ham adabiy mistikifatsiya ijobiy namoyon bo'ladi. Odil Yoqubovning "Ko'hna Dunyo" romanida adabiy mistikifatsiya asr g'oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi muhim vosita, epik tasvirning samarali ifoda usuli sifatida xizmat qilgan.

Yetuk so'z sa'natkori bo'lmish, Omon Muxtor "Ming bir qiyofa" asaridagi Abdulla Hakimning mashq daftari va Anvar Obidjon "Usta Gulmat" g'azallar turkumini mistikifatsiya hodisasini muhim ilmiy muammo darajasiga ko'tarish mumkin. Zero, asarlarida mistikifatsiya hodisasi qanday ifodalangan va qaysi o'rinlarda namoyon bo'lganini yuzaga chiqarish, ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbek adabiyotshunosligida O.Muxtor ijodining yo'nalishi va shakl, mazmuni, bir qator mavzulari borasidagi tadqiqotlar mavjud. Ammo yozuvchini "Ming bir qiyofa" asaridagi tadqiq etilishi lozim bo'lgan ishlar ko'lamini keng, uning o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va ijodiy uslubini belgilash, ijodkorning asarlarida namoyon bo'luvchi mistifikatsiya masalalari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa O.Muxtorning "Ming bir qiyofa" asaridagi mistifikatsiyani tadqiq qilish qaysi o'rinlarda ochib berganligi muhim.

Bu, o'z navbatida O.Muxtor asarlarini to'liq o'rganish, uning har bir jihatlarini tadqiq etish dolzarbligi va muhimligini isbotlaydi.

Bitiruv-malakaviy ishda Anvar Obidjonning "Usta Gulmat" g'azallari turkumi hamda Omon Muxtorning "Ming bir qiyofa" romanidagi Abdulla Hakimning mashq daftari tadqiqot obyekti sifatida belgilangan.

Bitiruv-malakaviy ishda Anvar Obidjon va Omon Muxtor ijodida mavjud adabiy mistifikatsiya hodisasini, uning asardagi g'oyaviy-badiiy ahamiyatini o'rganish, shu orqali ijodkor uslubiga xos xususiyatlarini tadqiq qilish maqsad etib belgilangan.

Bitiruv-malakaviy ishda adabiyotshunoslikda ilk bor Anvar Obidjonning "Usta Gulmat" g'azallar turkumi hamda Abdulla Hakimning mashq daftari adabiy mistifikatsiya hodisasi sifatida tadqiq qilinganligi uning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot natijasidan adabiy mistifikatsiya hodisasini o'rganishda foydalanish mumkin.

Bitiruv-malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanidagi Abdulla

Hakim mashq daftarining badiiy-g'oyaviy xususiyatlari

Istiqlol yillarida o'z asarlarini boshqalarga o'xshatmay yaratgan adiblarimiz orasida Omon Muxtor ham o'rin egallagan.

Adibning bir-biridan qiziqarli syujetli, kompozitsion loyihasi, nutqi ko'rinishlari jihatida bir-birini takrorlamaydigan “Egilgan bosh”, “Ming bor qiyofa”, “Ko'zgu oldidagi odam”, “Tfu”, “Ayollar mamlakati saltanati”, “Aflotun”, “Tepalikdagi xaroba”, birortasi ham odatdagi qoliplarga tushmaydi. Ular voqeilikva qahramonlar harakatining notabiy rivojlanishi hamda bir-birini to'ldirishi nuqtai nazaridan ham xarakterlidir. Ularda ramziy, majoziy tasvir usullari qorishib ketganligidan ayrim hodisalar o'quvchilar tasavvuriga sig'may qoladi. Chunki ularda real hayotda ro'y bermaydigan hodisalar ko'p uchraydi. Yozuvchi asarlariga asos qilib olinga voqealar xuddi tartibsiz, bir-biri bilan bog'lanmagan yettiyot liniyalari yig'indisidan tashkil topgan aralash-quralash hodisalarning maydalangan, tilka-pora qilingan lahtaklaridan tikilgandek taassurot qoldiradi. Ammo bu dastlabki aldamchi taassurot xolos. Aslida adib romanlaridagi voqealar hayotining o'zidagidek tartibsizligi harakatlarning qovushmasligi, behisob tasodiflarga boyligi, turli-tuman hodisalarning ko'pligi bilan bog'langan. Anashu qurama hayot ichida paydo bo'lgan kuchlar mavjud tartibsizliklar orasidan o'ziga yo'l qidiradi. Bu yo'llar esa turli shakllarda, chizgilarda voqea bo'lishi mumkin.⁴

G'oyalar hamda ularni tashuvchi odamlar taqdiri va faolyati bilan hayotning mutanosibligi yoki nomutasonibligi o'rtasidagi kurash oxirat kutilganidan ko'ra murakkabroq, muhimroq, konsepsiya asosida ro'y beradi.

Shu jihatdan Omon Muxtor romanlaridagi tartibsizliklar, voqealar rivojidagi chalkashliklar, kompozitsion qurilishning o'quvchiga erish tuyilmaydi va unda noxush kayfiyat uyg'otmaydi. Bunga yo'l qo'ymaslik Omon Muxtor bayonda,

^{4 4} Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. T. A.Navoiy nomidagi O'zb.Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009
156-157 betlar

avvalo so'zlarning joylashuviga alohida e'tibor beradi. Matnda tugal ibora tarkibiga kiradigan so'zlarning ongdagi ravishda sohib yuboradida, ulardan eng muhimlarini ajratib oladida, ma'no vaznini og'irlashtirish, g'oyaviy maqsadni ochishga ko'mak berishi muhimligini alohida ta'kidlash uchun tinish belgilari funksiyasini kuchaytiradi. Har bir so'z ortida tarixiy – ijtimoiy ma'noga dahldor bo'lgan fakt, hayratlanarli hodisa yoki mutlaq haqiqat yotadi. Garchi matnda tarqoq holda berilsa-da, bu so'zlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ajralmas bir butunlikga ega bo'ladi. Yozuvchi romanlaridagi so'zlarning bunday o'zaro aloqadorligi xuddi astronomik sistemaga o'xshaydi.

Unda planetalar qanday tartib bilan joylashgan, bir-birini taqozo etgan bo'lsa, tasvir matnidagi so'zlar ham shunday taassurot qoldiradi. Agar bittasi olinsa, qolganlari ham titraydi yoki to'kilib ketadi. Asarning o'zi esa shu tartibi bilan bir butun galaktikaga o'xshaydi va undagi koinot elementlari o'zaro tortishuv kuchi bilan bir biri mustahkam bog'langandir. Shu jihatdan tasvirdagi bitta unsure kamaysa, butun galaktika dinamikasiga putur yetadi.

Istiqlol davri prozasi o'zining syujeti kompozitsion qurilishidagi o'ziga xos xususiyatlari bilgina emas, balki nutqiy ko'rinishlari jihatidan rang-barang va qiziqarlidir. Hozirgi ijodkorlar avlodi har bir so'zning ichki imkoniyatlaridan, ma'no qudratidan unumli foydalanishga katta e'tibor bermoqda. Endilikda ma'naviy-ma'rifiy tomondan yangilanib borayotgan xalqimizning hozirgi nasli badiiy nutqning bunday yangi ko'rinishlarini to'g'ri qabul qila olmas ekan, u holda hech kim, hatto eng talantli sa'natkor ham yangicha nutq shakllarini iste'molga olib kirsa-da, uning doimiy yashab qolishiga kafillik bera olmaydi. Keyingi yillarda yaratilayotgan romanlarda badiiy nutqning rang-barang ko'rinishlari paydo bo'lib, ular shubxasiz asarlarning jozibadorligini oshirmoqda va uzoq umr bag'ishlamoqda. Omon Muxtor tinimsiz izlanishdagi isde'dodli nosirlarimizdan bo'lib, real voqealarni ramzlar orqali aks ettirib, dunyo haqidagi qarashlarimizni kengaytirishimizga ulush qo'shmoqda. Zero, adabiy ijod falsafiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liqdir. Omon Muxtor qahramonlari ham o'z sezgi va kechinmalari, kayfiyatlari olamida yashab, harakat qiladigan muayyan ahloqiy

vaziyatda o'ziga xos betakrorligi bilan ajralib turuvchi kishilar. O'z bilimi g'ubor va gunohlardan poklab, ko'ngil ozodligiga erishuvchi personajlardir.

Yozuvchi ijtimoiy-siyosiy masalarga ochiq - oshkora urg'u bermaydi. Inson ongi va ruhiyatida ro'y berayotgan evrilishlar, umuminsoniy muammolar nuqtai nazaridan xarakterning polifonik talqini orqali yuzaga chiqadi. Yozuvchi ruhiyati, ijodiy konsepsiyasi, shakliy-uslubiy izlanishlarida ichki mantiq asosida mustahkam rishtalar bilan bog'liqlik mavjud. Omon Muxtor romaniy tafakkuri shakllanishi uchun xalq og'zaki ijodining epik janrlari: epos, doston va ertaklar o'ziga xos zamin vazifasini o'tagan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki adib romanlarining o'ziga xosligini ta'minlashda ertakni ta'siri kuchlidir. Chunki ertaklarda hodisalar hayoliy shakllarda aks etibgina qolmay didaktika unsurlari faol qo'llanilib ijtimoiy ma'no chuqur ifodasini topgan. Bunda zulm va zo'rlik qoralanadi.

Tarixiy-adabiy jarayon dinamikasiga ko'ra ayrim janrlar semantikasi kengayib boradi. Bu borada Omon Muxtor barqaror an'anaviylikni tadrijiy takomillashtirishda individual mahorat qirralarini ko'rsata oldi. U folklor an'analarga faol murojat qila boshladi. Xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan janrlar va ularning xususiyatlari ta'siriy vositalarini poetik struktursi nisbatan takomillashgan, voqeilikni aks ettirish imkoniyati boyroq bo'lgan roman janri tarkibiga singdirib yubordi.shu orqali o'zbek romanchiligiga yangi badiiy talqin ruhini olib kirishga erishdi. Adibning asarlari sharqona milliy ruh falsafiy bilan yo'g'rila boshlashi xalq og'zaki ijodi namunalari, rivoyat va ertaklar syujetidan foydalanish natijasida O.Muxtor romanlari shakl-shamoyili, syujet tuzilishi, ifoda tarzi ham yangilandi.

Yozuvchi o'z asarlarida badiiy tasvir usullaridan biri adabiy mistifikatsiyadir. Bu usul biror narsaga sirli tus berish, yo'q narsani bor deb kitobxonni ishontirishga urinish bo'lib, zamonaviy milliy adabiyotdagi yangiliklardan biri sanaladi. Unga ko'ra adib o'z badiiy niyatiga erishish va obrazni yorqinroq ochish maqsadida qahramonlardan birini kundaligi yoki xotira daftaridan detal sifatida foydalanadi. Bu shartli vosita orqali ifodalangan hayotiy voqeilikni zarur hayotiy detallar, vaziyat va personajlar taqdiri bilan uzviy bog'lab,

obraz haqqoniyligini ta'minlaydi. Unga kitobxonni ishontirib, roman voqealari hayotiylikiga erishadi.

Mumtoz adabiyotda tajohuli orifona deb ataluvchi bu usul nosirning o'zini bilib bilmalikka olishiga asoslanadi.⁵

Shu o'rinda kundalikning janr xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tish joiz deb o'ylayman.

O'zbek tilidagi mavjud ilmiy manbalarda kundalikning janr xususiyatlari deyarli mavjud emas ayrim manbalardagina "Kundaliklar- ko'rgan kechirganlarini kunma-kun, odatda, sanasini qayt qilgan holda yozib boorish: Adabiyotdagi shu tarzda amalga oshirilgan rivoya shakli" sifatida izohlangan xolos.

Xorijiy manbalarda esa yakka shaxs tomonidan kundalik yozuvlar shakli sifatida olib boruvchi hikoya turi bo'lib, odatda bunday yozuvlar hikoya qilanoyatgan voqealarga zamondosh bo'lganligi uchun retrospektiv xususiyatga ega bo'lmaydi. Kundaliklar badiiy nasr janri va real shaxslarning avtobiografik xotiralar sifatida shakllanganligi memuar adabiyot ko'rinishi ekanligi ta'kidlangan. Rus va yevropa adabiyotida 18 asrning oxirlarida paydo bo'lgan kundaliklar badiiy avtobiografik hamda publistik xususiyat kasb etgan. Bu davrda kundalik shaklning keng yoyilishiga o'zini-o'zi kuzatish vositasida shaxsning ichki olamini ochib berishga asoslangan sentamentalizm sabab bo'lgan. Kundalik shakliga L.Strnning sentimental sayohat asarida ishlab chiqilgan va rus muhitida ildiz otgan sayohat janri mualliflari murojat qilgan. undalıklarga xotiralar va xatlar ham yaqin turadi.

XIX asr yozuvchilari kundakikka g'ayrioddiy qahramon xarakterini chuqur tadqiq qilish imkonini beruvchi shakl sifatida murojat qilganlar.

Kundalikning boshqa turi dastlab XVII asrda keng tarqalgan,. Ko'plab yozuvchilarning tarixiy-adabiy qiziqish uyg'otsada, doim ham mustaqil adabiy asar sifatida ahamyat kasb etmagan.

⁵ Yoqubov I. "O.Muxtor romanlari", Til va Adabiyot ta'limi. T.2011.

Yozuvchilar va adabiy muhitga yaqin bo'lgan real shaxslarning kundaliklari tarixiy - chiziqli adabiy ahamiyat kasb etadi. Real shaxslarning o'zlari yozilgan kundaliklari samimiyligini va hujjatligi bilan adabiy-badiiy qiziqish uyg'otgan.

XIX asrning 70-yillarida F.Dostolskiyning yakunlangan publistik va badiiy asarlardan iborat yozuvchi kundaliklarining paydo bo'lishi va muntazam chop etilib turilishi adabiy asarning tan olingan, keng kompozitsion va janr imkoniyatlariga ega kundalikning shakllanganligidan dalolat berdi.

Tadqiqotchi A.Kolyadina fikricha, adabiy janr sifatida quydagi ko'rinishlari mavjud:

- Shaxsiy kundalik;
- Yozuvchi kundaligi;
- Kundalik shaklidagi badiiy asarlar.

Yozuvchilar, olimlar, artistlar kundaligi keng kitobxon ommasiga mo'jallanmasa-da, ularning badiiy qiymati baribir ham adabiy qahramonlarning atayin yaratilgan kundaliklari raqobatlashish xususiyatiga ega.

Kundalikning adabiy shakl sifatida yuzaga kelishiga bir qator omillar sabab bo'lgan ulardan asosiysi yozuvchilarning alohida odamning hayotiga oid fakt va ishonchli guvohliklarga asoslangan shaxsning ichki olamini hujjatli asoslangan matn orqali tahlil etishga intilishlari bilan izohlanadi. Bu esa yozuvchilar tomonidan shakl sifatida kundalikning maishiy turi va boshqa hujjatlarning qo'llanishiga sabab bo'lgan.

Yozuvchi kundaliklari bir qancha muddat davomida olib borilgan kunli paytlar shakli bo'lib, ulardan ichki kechinmalardan ko'ra, kundalikka xos rivoyaning muddat, qayd etishning davriyligi kabi tashqi omillar shuningdek, muallifning hujjatli guvohligi odamlarning suhbatlari xatlardan parchalar kabi tashqi hodisalar tavsifi yetakchilik qilgan.

Maishiy kundaliklardan aqliy ravishda adabiy kundaliklar muallifi o'zida haqida oz yozgan holda kelajakda uning fikricha tarixiy ahamiyatga ega bo'ladigan hamma narsaga e'tibor qaratib, badiiy birlik hosil qiluvchi alohida fakt va detallarning tanlab olgan.

Yozuvchining kundaligi asosini muallif tomonidan ongli ravishda rivoyada qo'llanadigan Hamada muddatlilik va davriylik singari xususiyatlarga asoslangan real maishiy kundalikning tashkil etuvchi yon daftarchasidagi qaytlar tashkil etadi.

Odatda, yozuvchi kundaligi muallif g'oyasiga bo'ysindirilgan bo'lib, tasvirilgan voqeilikka nisbatan publistikligi va bahsligi bilan farqlanadi ushbu maqsadga muallifning hujjatlik guvohliklari odamlar suhbatlari lavhalari xatlaridan parchalar shahsiy kuzatishlari xizmat qiladi. Shu ma'noda yozuvchi kundaligi jurnalistikaning ocherk, pamfleyt va felleton janrlari bilan alohida ta'kidlash kerak. Maishiy kundaliklaridan faqli ravishda adbiy kundaliklarda voqealar muallif niyatiga bo'ysindirilgan bo'lib unda vaqt shartli kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Ba'zan kundalik material kundaliklari yozuvchilar tomonidan badiiy asarlarni yaratishda foydalanadi.

Kundalikning adabiy hodisa janr sifatida tadqiq etish adabiyotshunosligimizning galdagi vazifalaridan biridir.

Maishiy shaxsiy sifatida kundalik ancha keng tarqalgan bo'lib, turli soha vakillari kishilari tomonidan yuritilgan kundalikning birlashtiruvchi qator umumiy xususiyatlar mavjud. Avvalo kundalikda muallifning ko'rgan kechirganlari bilan his qilganlari bilan ularning qayd etilishi orasida vaqt masofasi yo'q hisobida, ya'ni olingan tassurotlar sovu masdanoq qayd etiladiki, shu jihati bilan ular memuarlardan farqlanadi.

Ikkinchi muhim xususiyat shuki kundalik birovlarining o'qishi uchun mo'ljallanmaydi ular o'zi uchun yoziladi. Shu tufayli kundalikda muallif o'z fikrlari izhorlarida samimiyat va munosabat va baho ifodasida haqqoniylik kuzatiladi. Huddi shu narsa ularga qariyb hujjat darajasidagi ishonarlikni bahsh etadi. Odatda kundalik ko'proq muallifning shaxsiy realligi uning o'zi bilan bog'liq voqealar aks etadi ammo shulardan kelib chiqqan holda ularda olim va odam, hatyotning mohiyati, biror-bir aniq hayotiy masala yuzasidan umumiy mushohadalar ham ifoda etadi.

Mazkur xususiyatlar tufayli yozuvchi shoirlar yuritgan kundalik adabiyotshunoslik uchun ayniqsa biografik tadqiqotlar uchun beqiyos manbaga

aylandi. Bundan tashqari kundalikka xos xususiyatlar ayrim hollarda badiiy niyat ijrosi uchun juda qulay imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun adabiyotda kundalik shaklida qurilgan asarlar ham kundalik shakli muhim kompozitsion unsur sifatida istifoda etilgan asarlar ham ko'plab uchraydi.⁶

Mana shunday asarlar sirasiga O.Muxtorning "Ming bir qiyofa" zamonidagi Abdulla Hakimning kundaligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Abdulla Hakim kundaligini birovlarining o'qishi uchun yozmagan, u faqat o'zi uchun yozgan.

Asarda bu kundalik Gulhumorning xolasining uyida saqlanadi. Yozuvchi bu kundalik vositasida kitobxonni shu voqea bolgan deb ishontirmoqchi bo'ladi. Bu yerda kundalik ijobiy obrazni badiiy uslubidir. Asarda kundalik ikki joyda uchraydi. Kundalikni barchasida Halima turadi. "Ular shu kuni allamahallagacha ko'cha changitib yurishdi, nihoyat hayrlashayotganda Gulhumor Sadirjonni qo'liga qandaydir daftar tutqazdi:

- Bilasizmi, bir yigit xolamning uyida ijarada turardi. Boshqa shaharda uch-to'rt yil burun nobud bo'lib ketgan. Shoir ekan. Daftari uydin topildi. Siz menga kitob beruvchi edingiz, men ham sizga esdalikga bersam"... .

Aslida mavjud bo'lmagan kundalikni yozuvchini Abdulla Hakim nomidan berishi ya'ni mistifikatsiya Abdulla Hakim xarakterini ochish juda o'rinli ishlatilgan.

Mistifikatsiya yo'li bilan yaratilgan Abdulla Hakim kundaligi Asar ruhiga chuqur singdirilgan. Shuning uchun ham asardagi kundalikning ahamiyati benihoya kattadir.

Xullas O.Muxtorning "Ming bir qiyofa" romanida adabiy mistifikatsiya asar g'oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vosita, epik tasvirning samarali ifoda usuli sifatida xizmat qilgan.⁷

Masalan: "Ming bir qiyofa" romanidagi Kultepaga borishga ahd qilgan Nasriddin va uning eshshagi ilan bog'liq "Afandining bolaligi" hikoyati, "Egilgan

⁶ D.Qurbonov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva Adabiyotshunoslik lug'ati. T.Akademnashr.2010. 147-bet

⁷ To'plam.O'zbek filologiyasi va uni o'qitishning dolzarb muammolari. Farg'ona – 2013.51-52-betlar

bosh” romanidagi “Mullaning boshi bormidi” ertagi dengizdagi sayyoh haqidagi naql, “Odam”dagi tilsimli oila bilan bog’liq voqealar, “Tepalikdagi haroba”dagi tepalikdagi harobada sodir bo’luvchi xotira va hayol parvozlari bilan bog’liq g’aroyibotlar, “Tfu” zamonidagi hashamatli saroyni kutilmaganda g’oyib bo’lishi, otasining Haydar Maxsum “Tilsim”lariga ishonchi va shu o’rinda kitobxonni ham ishontirishga (urinadi, erishadi) va mana bu misollar adabiy mistikatsiyadan o’rinli foydalanilganligiga asos bo’ladi.

O.Muxtor zamonalaridagi barcha qahramonlar juda ko’p musibatlarni boshdan kechiradi. Bir so’z bilan aytganda “yemagan somsaga pul to’lashadi”. Masalan, “Ming bir qiyofa” romaninig bosh qahramoni Abdulla Hakim ham anashular sirasiga kiradi.

Adibning ushbu romani uchta hikoyatdan tashkil topgan.

1. “To’rt manzara”,
2. “Olisdagi odam”,
3. “Afandining bolaligi” deb nomlangan. Birinchi hikoyat to’rt manzara deb nomlangan. Bu asar tuzilishi jihatdan uch pardan, olti ko’rinishdan iborat dramaga o’xshaydi. Xar bir qism ichki fasllarga ajratilib ular faqat tartib raqamlar bilan ajratilgan⁸.

Tartib raqami xar bir hikoyat bilan tugallanmaydi, navbatdagi qisimlarda ham davom etaveradi. Bu tabiiyki, muallifning ijodiy badiiy niyati, konsepsiyasi bilan bog’liq bo’lib, bir necha zamon bo’laklari birlashib, yagona badiiy manzara hosil etganligini takidlaydi. Omon muxtor zamonaning xususiyati haqida gapirar ekanman, uning “Ming bir qiyofa” romanidagi har bir hikoyatni boshqa yozuvchi bitta roman deb hisoblar edi. Adibning maqsadi esa “ixcham holda kattaroq bir gaplarni tashlash edi”. “Ming biq qiyofa” romaniga nazar tashar ekanman romandagi to’qima obraz hisoblangan Abdulla Hakimning she’rlar daftari orqali qahramonlar taqdiri o’zaro bir – biriga bog’lanadi. Adib adabiy mistikatsiya hodisasidan romanbop g’oyani taraqqiy qildirish tamoillaridan biri sifatida foydalanadi. Romandagi she’rlar daftari

⁸ Nazarov O’. O’zb t va adabiyoti. “Ming bir qiyofa” romanida badiy xronatop. 2012/№6.

qahramon fikr - o'ylari, taassurotlarini tahlil qilish imkonini beradi. Romandagi she'riy daftar orqali butun bir xalqning ohu-nolalari, yuragida yig'ilgan alamli dog'lari yuzaga chiqqanga o'xshaydi. Asr qahramoni Abdulla Hakim yozgan she'rlari huddi xalqning dardiga davoday tuyiladi.

Roman qahramonlaridan biri Abdulla Hakim oddiy bir xizmatchi. Ko'nglida zarracha g'ubori yo'q inson sifatida asar mazmunini ifoda etadi. Asarni o'qish natijasi uni qanoatli inson, iste'dodli shoir obrazini talqin etganligini guvohi bo'lamiz.

Hayotdagi narsalar yoki bo'lmasa turli voqea-xodisalar ham ayrim o'rinlarda asar voqealariga to'g'ri keladi. Bu fikrim bilan men "Ming bir qiyofa romanidagi Abdulla Hakim"ni ayanchli, fojiali hayotiga solishtirmoqchiman. Hayotda bo'lgani kabi qahramonimiz ham hayotning bir tasodifi tufayli vafot etadi. O'zbek xalqida "Turmush-musht" degan iboralari uchrab turadi. Mana shunday turmushning mushti Abdulla Hakimning taqdirida o'z ifodasini topdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek roman uch hikoyatdan iborat. Birinchi hikoya "To'rt manzara" deb nomlangan. Mana shu hikoyatda adib adabiy mistifikatsiyadan foydalangan. Kimdir mistifikatsiya deb o'ylashi mumkin, yana kimdir mast odamning hayolidan o'tgan kechinmalar deb ham izoh berishi mumkin.

"Ko'cha oydin, yorug' ammo bo'm – bo'sh" edi. U mashina tutishga ancha urindi. Bo'lmadi. O'lası ichgan, oyoqda zo'rg'a turgan odamga yarim tunda odamga birov mashina to'xtatmaydi!

Shahar. Katta shahar – uyigacha yo'l besh chaqirimdan kam emas. Shu payt kutilmaganda qandaydir yapasqi avtobus yo'lda paydo bo'lib, bekatga yaqinlash boshladi. U bir umidlanib – bir umidsizlanib, shuning barobarida shoshganicha, ikkala qo'lini bab - baravar ko'tardi. Avtobus uning yonginasiga kelib to'xtadi. Old orqa qopqalar lang ochildi. Shu payt u avtobusda yo'lovchilar yo'qligini payqab, qanday yahshi odam ekan haydovchi bir meni o'zim uchun to'xtadi-ya, deb o'ylaydi. Ammo u mashinaga, qopqalari yopilgan

mashina yo'lga tushgach oldinga o'tdi-yu mashinada haydovchini o'zi ham ko'rinmayotganini sezib, angrayib qoldi".

Kitobxon o'qib buni uydirma deb xisoblaydi, mana bu uydirma mistikatsiya hisoblanadi. Mana shu o'rinni adib kitobxonga ochiq qoldiradi. Izoh bermaydi. Qarangki, adibning mahoratini mana shu misolni qahramonga moslab qo'ygan. Aytib o'tganimizdek Abdulla Hakim tabiatan ancha bosiq, vazmin shaxs obrazini talqin etgan. Uning o'rnida boshqa bir odam bo'lganida, yuragi yorilib yoki bo'lmasam ayuhannos solishi tabiiy edi. U bir o'yin boshlaganini oz bo'lsada sezgan edi. U atrofga qarab haydovchisi yo'q mashinda uyumi, unga dahli yo'q tomonga ketayotganini ham unutadi. Unga lazzat baxsh etgan baxtli onlarni eslab, she'rini o'qiy boshladi.

Qahramonimiz kayf zo'rida avtobusni to'xtatishga urunadi. Ammo u kutgan natija chiqmaydi. U avtobus tugmalarini bosganda, orqaga qarab uchub ketadi. Tovbasiga tayangan insonday ya'na o'rindiqda o'tirib, oxiri nima bilan yakunlanishini kutdi. Olib qaraydigan bo'lsak bu kuzatilayotgan hodisalar X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarini yodga soladi. Taqqoslashda butun asar mazmuni to'g'ri kelmaydi, ammo Hoshimjonning qalpog'ini kiyib qilgan xarakatlatlari va O.Muxtorning "Ming bir qiyofa" romanidagi haydovchining ko'zga ko'rinmasligi voqealari orasida o'xshashlik mavjud. Bu usul bilan adib asarga qiziqish uyg'otish maqsadida foydalangan. Kitobxonda asar boshidagi voqealarni qanday yakunlanar ekan, degan savollarga javob topishga undaydi.

Omon Muxtorning ushbu asari mamlakat, millat tarixining "qayta qurish" deb nom olgan alg'ov-dalg'ovli bir davri – milliy mustaqillik yillarida (1988-1991) yoritildi. Bu zamon erkin fikrni uy'g'onishi moziyga murojat, milliy qadriyatlarga e'tiborni oshishi bilan ajralib turadi. Yangi tarixiy ma'daniy davrga xos islohotchilik tafakkur evilishi hususiyatlari romanga o'z muhri, aksini qoldirgan, albatta. Asarga nazar tashlaydigan bo'lsak, romanda badiiy xronotopning quyidagi shakllari o'z shaklini topgan. 1. Zamonaviy xronotop (muallif yashayotgan davr manzaralari). 2. Tarixiy xronotop (zamonaviy

xronotopni izohlaydigan, uni o'tkir gramatik muammolarini oydinlashtirib beradigan moziy hodisalarini badiiy ifodasi). 3. Kelajak (oxirzamon) xronatopi (zamonaviy xronatopda faoliyat ko'rsatgan qahramon (Abdulla Hakim)ning boqiy hayotga oid lavhalar).

Bundan ko'rinadiki, bor yo'g'i 154 sahifani tashkil etgan roman badiiy maydonida uchta zamon-makon o'zaro birlashadi va zamonnavisning o'tnish, zamonaviy hayot istiqbol haqidagi falsafiy-ahloqiy qarashlari o'z strukturasi birlashtirib turadi. Romanning zamonaviy hayot, istiqbol haqidagi falsafiy-ahloqiy qarashlari o'z strukturasi birlashtirib turadi. Romanning zamonaviy xronotopida sho'ro davriga xos tarixiy fojialar, yovuzlik tantanasi, e'tiqodsizlik tantanasi, e'tiqodsizlikning ma'shum oqibatlar, xalqning o'z o'tmishi, milliy qadriyatlardan mahrum etilganligi, mana shu davrda ham yomonlik, e'tiqodsizlikka qarshi tura olgan insonlar qismon aks ettirilgan. Bu jihatdan ushbu badiiy qatlamdagi Abdulla Hakim, Sadirjon, Burhon Sharif obrazlari alohida ahamiyatga ega. Garchi ushbu qatlamda Abdulla Hakim, Sadirjonlar hayoti kengroq ko'lamda tasvirlansada, ushbu xarakter mohiyatini chuqurroq anglab yetishda Burhon Sharif obrazi muhim o'rin tutadi. Chunki u aniq taniqli arbob sifatida kishilarga yaxshilik qilish, yurt taraqqiyotini yuksaltirish ishi bilan kifoyalanib qolmagan. U mamlakatda avj olayotgan jinoyatchilik, uyushgan – “uyushgan guruh” (mafiyaga qarshi) kurashga otlangan.

Uning mana shunday jonkuyarlarini ko'ra olmagan shaxslar, uni qo'rqitmoqchi bo'lib qo'ng'iroq qilgan, hozirgi til bilan aytganda dumaloq xat yozgan, mashinasi oynasini sindirib, g'ildiraklarini teshib ketgan xollar yuz berib turar edi. Ammo bunday ko'ngilsiz voqealarga u ahamiyatsiz qarar, xattoki jonini ham qadri yo'qday bo'layotgan xodisalarga beetibor qarar edi. Mana shu jasorati tufayli, uning odamlar orasida nomi chiqib, katta boro'-e'tibor ham qozongan edi.

Burhon Sharif yovuzlik tobora ildiz otib borayotgan davr, jamiyat, muhit, makonda adolatsizlik va nohaqlikka qarshi jonini garovga qo'yib kurash maydoniga urgan shaxs. Uning qilayotgan ishlari obro'si oki mavqeini ko'lab

emas, balki u xalqni, odamlarni yomonlik girdobidan olib chiqishga jazm etgan. Jamiyatda ko'pchilik insonlar tahlikalai olishuvda Burhon Sharif qurbon bo'lishini tahmin qilishar edi. Ammo unga juda o'xshab ketadigan, cho'ntagida Burhon Sharifni guvohnomasini olib yurgan Abdulla Hakimni jinoyat olamini vakillari qo'lga oladilar. Uni Burhon Sharif deb qo'lga olishib, so'oq-savolga tutishadi.

Qahramonimiz o'zini Abdulla Hakim deb tanishtiradi. Ammo jinoyatchilar uni yon cho'ntagidan chiqqan guvohnomaga solishtirib uni o'zlari izlayotgan o'lja ekanligini aniqlashadi.

Xalqimizda "kambag'alni tuyani ustida ham it qopibdi" degan maqol bejiz aytilmaganga o'xshaydi. Qahramonimiz hayotiga nazar tashlasak uning yiqilsa turgazadigan tirgagi, issiq-sovug'idan xabar oladigan aka-opasi, unga hamdard bo'ladigan mehribon turmush o'rtog'i yo'q. U avvaliga, o'zini Burhon Sharif deb tan oladi va Burhon Sharifdek xatti-xarakatlar qila boshlaydi. U qiyofadoshini yaxshilik, ezgulik yo'lida qilayotgan ishlarini bilar edi. Uning nazarida butun xalq uning og'zidan chiqqan gapni ma'qullar, har doim mana shunday bo'lib kelganini, o'z ko'zi bilan ko'rga yoki eshitgan. Xuddi ana shunday natija kutgan Abdulla Hakim jinoyat olami vakillarini insofga keltirmoqchi bo'ladi.

"-Ha, men Burhon Sharifman. Menga bunaqa muomala qilishga hech kimninig haqqi yo'q. meni minglab odam biladi. Hamma hurmat qiladi. Kimki hisoblashmasa, o'zidan ko'rsin. O'ziga qiyin...".⁹

Bu so'zlarni u aytgandan so'ng ularni insofga chaqirdim, deb o'ylaydi. Ammo, bunday xislat unga notanish ekanligini o'zi ham anglab yetganini, u hayojondan bo'g'ilib, alam-nadomat bilan aytadi. Ularning tutquniga tushgan Abdulla Hakim xona to'rida bir zum o'yga toladi. Albatta, dastlab men Burhon Sharifman degach u o'zini oxirigacha Burhon Sharifdek tutishi shart emas edi. Senlar adashdinglar. Men ham senlarni adashtirdim deb ochig'ini aytishi, boshqa odam ekanligini isbotlashga harakat qilib, qutilib ketishga urinishi mumkin edi. Ammo inson dunyoda azaldan do'st va dushman degan tushuncha orasida yuradi. Allaqayerdagi nomardlar nog'arasiga o'ynab, hiyonat qilganday ish tutishga uning

⁹ O.Muxtor. "Ming bir qiyofa". T.1994. 8-bet.

viydoni yo'l bermadi. U jinoyatchilar boshlig'iga qandaydi bolalarcha beg'uborlik bilan ularga cho'ntagidan chiqqan guvohnoma uniki emasligini, uning egasi boshqa bir inson ekanligini aytadi. Ularga huddi o'z yaqinini maqtayotganday Burhon Sharifni maqtaydi.

Jinoyatchilar bilan savol-javob shu tarzda bo'lib o'tgan.

- Xo'-sh, Burhon Sharif o'zlari ekanlar-da, taqsir? Shuni aytib qo'ysalar bo'larmidi?!- dedi
- Yo'q, men Burhon Sharif emasman...
- Bo'lmasa, kimsiz?
- Men Abdulla Hakimman. Burhon Sharif bizning idoramizda mavqey egallagan bir kishi. Men esa, xat, qog'oz tashib yuradigan oddiy xizmatchiman xolos.
- Ikkovlarinig tengdoshmisanlar?
- Yo'q. burhon Sharif mendan ikki yosh katta lekin aft – angorimiz o'xshaydi. Odamlar aka-ukami, egizakmi deb o'ylashadi. Hayotda shunaqasi ham bo'lar ekan.
- Bu, cho'ntagizdan chiqqan narsalarga nima deysiz?
- Sariq chaqalar bilan eski qopchiq meniki... guvohnomani yangilash uchun Burhon Sharif menga berib qo'ygan edi. Men oddiy xizmatchi ekanligimga qaramay, yozish chizishga durustman. Shu ish cho'zilmasin deb xujjatni cho'ntagimda olib yurgan edim. Taklifnomaga kelsak... men yoshlikdan otasiz o'sganman. Aka-ukalarim yo'q. bir qari odam bor edi, u kishi ham o'lib ketdi. Buning ustiga yaxshi ko'rib yurgan sevgilimdan ayrilgach, dunyodan ko'nglim sovib bola-chaqa ham qilmadim. Qisqasi, ijara uyda yashayman; yeb-ichimning tayini yo'q. Burhon Sharif birovning xoliga tushunadigan odam. Ko'pincha biror yerga borolmaydigan bo'lsa taklifnimani menga beradi. Ko'chada ovqat qidirib yurmasdan ziyofatga

bora qoling, deydi. Kambag'alni bir to'ygani-boy bo'lgani. Men ham jon deb ketaveraman¹⁰.

Xalqimizda "Arzonni sho'rvasi tatimaydi" degan maqol bor. Yuqorida keltirilgan parchada Abdulla Hakimninig hayotning zarbasiga duch kelganini ko'rishimiz mumkin. Qahramonimiz hammani o'ziga o'xshatadi.

Tap-tortmasdan, tanimagan-bilmagan insonlarga o'zini hayotini dasturxon qiladi. Hayotda to'g'ri gapirib o'rgangan Abdulla Hakim Burhon Sharif emasligini to'g'ridan-to'g'ri tan oladi. Jinoyatchilar Burhon Sharif deb qo'lga tushirgan o'ljalari bilan savol-javob ularning nazarida qandaydir natija bermayotganini, bu yerda bema'ni munosabat shakllanayotganini sezishib Abdulla Hakimni rosa do'pposlashadi. Hayotning kami yetmagandek, u kaltak yeb joni og'riyotgani uchun emas, birovlardan bekorga tahqirlanganidan xo'rliqi keladi. Abdulla Hakimning mastligidan nom-nishon qolmagan edi. Birdan fikri tiniqlashib, ko'zlari ochilgandek bo'ladi. Abdulla Hakimning bu harakati befoyda ketganidan so'ng u tushunib yetdi. Demak bu o'yinda unga imkon berilmoqda. Uning nazarida hayot rejissiyor unga hayotda ota-onasidan, jonidan ortiq sevgilisidan keyingi yaqinroq insoni bo'lgan Burhon Sharif rolini ijro etishdek ma'suliyatli vazifa yuklatilgandek xis qildi.

"To'xta! Bu hammasi hali holva Seni qo'yib yuborishmaydi. Qiynashadi! Bularni aldab allabir tupkadagi bu qorg'ondan qochib kaetolmaysan! Sen arzimaydigan biror sirni bilmaganingdek, hiyonat qilishni hamistamaysan! Demak... Demak, boshga tushganini ko'z ko'radi. CHidash kerak! Chidash..."¹¹.

Behosdan uning hayoliga yalt etgan fikr keldi. U o'yga cho'mganicha, hayotini sarhisob qildi. Uning nazarida u hayotda keraksiz insonday, Burhon Sharif jamiyatdagi insonlar uchun suv va havodek kerak insondek gavdalandi.

"Seni Burhon Sharif deb tutishdimi, Burhon Sharifni izidan tushishmaydi. Demak, Burhon Sharif senga doim yaxshilik qilgan evaziga hozircha tinch, ezgu bir ishni bajaryotgan ishni bajarayotgan Burhonni sen ham asrashing kerak!

¹⁰ O.Muxtor. "Ming bir qiyofa". T.1994. 8-bet.

¹¹ O.Muxtor. "Ming bir qiyofa". T.1994. 8-bet.

Sendan hayotb umringda bir marta fidoyilik , martlik ko'rsatishni talab qilyapti! Chizzang qaltirab o'tirishga haqqing yo'q! Gap shu... Kelinglar, hunarlaringni ko'rsataveringlar – men Burhon Sharifman !”¹²

Shu tarzda uning hayoliga turli-tuman fikrlar keldi. Xullas, qismat avvaldan u bilan Burhon Sharifning kindigini bog'lab qo'yganday tuyildi.

Yuqorida keltirilgan parchada Abdulla Hakim bunday holatidan o'zini xursanday tuyiladi. Nega deganda, uning ko'nglida qandaydir iliqlik paydo bo'lganini sezadi. Chunki u Burhon Sharif tinchini o'ylaydi. U har qanday vaziyatda ham Burhon Sharifga sharoit yaratishga harakat qiladi. Bu o'rinda insonni o'yga toldiradigan holatlar oz-moz emas. Keltirilgan parcha mazmuniga nazar tahlil ekanmiz, xuddi-ki Abdulla Hakim tibbiyot institutini bitirayotgan talaba Gippokrat qasamyodini o'qiyotgonda jamiyatdagi hamma insonlar hayotini saqlab qolish, ular uchun ham farz ham qarz hisoblansa, Abdulla Hakim uchun ham, mana shunday vaziyatda Burhon Sharif hayotini saqlab qolish sharaflilik burchdek tuyuladi. Mana shu o'rinda Abdulla Hakim qilayotgan harakatlardan mamnun edi, chunki u kimningdir yashashi uchun kerakli inson ekanligini his qildi.

Jinoyatchilar Abdulla Hakimni og'zini baylash maqsadida, insonni kerak bo'lgan hamma narsalarni muhayyo qilishni va'da berishadi. Uning o'rnida o'zga bir inson bo'lganida, hayotidan nolib, yaxshi yashash maqsadida o'z do'stidan ham voz kechgan bo'lardi. Unga mashina, uy-joy, umrini oxirigacha yetadigan boylik taklif qilganda ham rad javobini beradi.

Shoir ahli, qaysar tabiatga ega bo'ladi degan qarashlar ham mavjud. Mana shunday qaysarlik Abdulla Hakim xarakterida uchraydi. Og'zidan “ha” degan javob chiqqanida bunday azob-uqibatlar boshiga tushmagan bo'lardi. U oxirigacha Burhon Sharif ro'lini o'ynashga qaror qildi.

Abdulla Hakim sevgi, hayot, inson haqida she'rlar yozgan, umri davomida faqirlikda yashagan, oila qurolmagan, o'z sevgilisidan ona rizoligi uchun voz kechgan, Sho-shuhrat, mol dunyo, marrraba yo'lida qabix ishlar qilmagan, adolat,

¹² O.Muxtor. “Ming bir qiyofa”. T.1994.145- bet.

haqiqat uchun kurashgan Burhon Sharifga ko'mak berish maqsadida o'limni ham bo'yniga olgan inson, talqinida fojiali halok bo'ladi.

Omon Muxtor asarlarida tartib raqami har bir hikoyat bilan tugallanmaydi, navbatdagi qismlarda ham davom etavergani kabi adabiy mistifikatsiya hodisasi ikkinchi hikoyat "Olisdagi odam"da ham uchratishimiz mumkin.

"Yerda hali hayot odatdagidek davom etayotgan edi... .

Bir kuni ertalab kutilmaganda to'zon ko'tarilib, shatr-shturlab yomg'ir yog'di.

Yomg'irdan leyn bosilish o'rniga – shamol kuchaygandan-kuchayaverdi. Asta yangrashdan baland pardaga yuksala borgan ohang kabi u olam sayin shiddatlanib, avjiga chiqdi: ko'cha bo'yidagi daraxtlarni ildizidan ayovsiz qo'porib, ular tomini varrak qilib uchira boshladi. Uylarning o'zi ham ummondagi kemaga o'xshab, shamoldan nari borib-beri kelar edi. Nihoyat Nuh zamonidagi toshqinni aytmasa ming yillar davomida odamlarning yeti uxlab tushiga kirmagan voqea ro'y berdi.

Qadimiy obidalar, eski binolar tegrasida, bolaxonali uylarni oralab o'tgan ingichka ko'chalardan uzoq uvillab-tentiragan shamol tuyqusdan o'zini katta ko'chaga otdi. Shahar markazidagi 3-4 ta ko'p qavatli yangi imorat atrofida notinch aylanib ular orasida ajralib turgan – marmardan tiklangan to'qqiz qavatli koshona poyiga bosh urishga tushdi... . besh-o'n hamladan so'ng egovlagandek koshonani tag-tugidan ko'chirib yerga uni burgutdek qanotlariga yuklaganicha, shahardan olisga allaqayoqlarga olib ketdi"¹³.

Bu hikoyatni kitobxon o'qiganda yuzida qandaydir kulgu paydo bo'ladi. Bu voqeani o'qib albatta ajablanasan kishi. "Qirq yil qiron kelsa ajali yetgan o'ladi", - degan naql faqatgina odamlargagina emas, uylar, daraxtlarga ham tegishli ekan-da, deb hayratlanasanda. Asarni boshida keltirilgan adabiy mistifikatsiyani o'qib, asar sayoz yozilganmi-kan, degan savol tug'iladi. Hay-hotday marmardan tiklangan to'qqiz qavatlik koshona qanday yo'qolishi mumkin?, Bu uydirma degan e'tirozlar bo'lishi tabiiy, albatta, kitobxonda. Asarni ko'zdan kechirar ekanmiz, endi

¹³ O.Muxtor. "Ming bir qiyofa". T.1994.61-62 bet.

Mulkobod shaharchasida yashayotgan insonlar hayoti, turmush tarsi qiyinlashdi, odamlar sarosimaga tushadi, to`qqiz qavatli binoni ichida kimningdir yaqinlari, aka-ukasi, yoru-birodarlaridan judo bo`ldi, - deya, kitobxonda hamdardlik hissi uyg`onadi. Lekin, aksincha unday bo`lmaydi. Hammasi o`zi bilan o`zi ovvora xalq yana o`z tirikchiligi tashvishiga tushib ketadi. Birov marmardan qad ko`targan binoni yo`qolganini eslab kam o`tirmadi. Faqat o`sha kuni shaharda birgina kishini koshonani yo`qolgani daxshatga soldi. Shamol to`qqiz qavatli imorat bilan birga, uning yurak-bag`rini ham yulqib ketgandek edi. Bu hikoyatda Sadirjon va Gulhumor obrazi mohirlik bilan ochib berilgan. Shahardagi birgina insonni bu manzara dovdiratib qo`ygan edi.

Shu o`rinda savol tug`iladi?

Nega aynan faqat birgina inson bu voqeadan hayratlanyapdi. U inson kim?

Bu inson Sadirjon. Uning kasbi shifokor. Bu dunyoda yigit bilan qiz borki, har birining hech kimga o`xshamagan o`z muhabbati tarixi bo`ladi.

Sadirjon sodda to`g`ri, hayot ishlarida uquvsiz, o`ttiz yillik umrini, asosan, kitob o`qib, odamlarni muolaja qilib o`tkazgan yigit edi! Shu yil kuzda ularning to`yi o`tishi kerak edi. Shunga qaror qilishgan edi. Kutilmagan bu manzara qahramonimiz orzu-umidlarini endi bir yo`la ko`kga sovurgan edi. Ular bir-birlarini tasodifan yoqtirib qolishgan edi... .

“Kunlardan bir kun tushlik yaqinlashganda Sadirjon har kungidek, qo`lini yuvib, egnini almashtirganicha tushlik qilgani hovliqib ko`chaga chiqdi.

Ko`chada ketayotib, shamol shaharni astoydil elab o`tganini u endi payqadi. Har qadamda yovuzlik asorati ko`zga tashlanar, hammayoq dabdala edi! Sadirjonning allanechuk yuragi uvushdi.

Ammo baribir uni shu paytda, bundan cheksiz iztirob chekdi deb bo`lmas edi.

Oldinlari ham ba`zi-ba`zida shahar zilzila, sel, yong`in degandek balo-ofatlar, halokatlarga yo`liqib turar edi. Odamlar ma`lum darajada bunga ko`nikib qolishgan edi! Bundan tashqari, muhimi: Sadirjon so`ngi paytlar deyarli har kuni Gulhumor degan qiz bilan birga tushlik qilar, bu qiz uni qaylig`i edi. Bugun ham

ular ko'rishishga vadalashgan, shu palla Sadirjonni butun hayolini Gulhumor band etgan edi. Bu inson to'g'risida o'ylab qattiq hayajonlanar edi.

Katta-katta odimlab ingichka ko'chalarni ortda qoldirganich shahar markaziga yetib keldi. Yer chizib borayotgan edi, shahar markaziga yetgach, boshini ko'tarib qaradi... .

Uning yuzidagi mamnun tabassum qotib qoldi. Oyoqlaridan mador qochib, gandraklab ketdi... .

Bir soniya ichida olamni zulmat – zimiston qoplagandek bo'ldi.

Sadirjonni har ko'zi turgan shahar markazidagi to'qqiz qavatli koshona bugun nimagadir o'rnida ko'rinmas edi!... .

Hiyla o'ziga kelgach Sadirjon, bu tushim-mi?, o'ngim-mi?, deb bir necha marta yumib-ochdi. Biroq bundan natija chiqmadi, ulug'vor koshona yo'q, qayoqqadir yo'qolib qolgan edi !...

Koshona o'rnida, urush paytlari bo'mb atushganidek, kattakon chuqurlik yastanib yotardi, chuqurlikning pastida to'plangan yomg'ir suvidan yuzaga kelgan ko'lmak oftobda jimirlar edi!...

Sadirjon haybatli o'raga o'xshash chuqurlik etagidagi uyilib yotgan tuproq ustida g'amgin cho'nqaydi. La'nati koshona bilan birga, Gulhumorimdan ayrilib qolmadimmi-?kan, deb o'ylab, beixtior ko'ziga yosh to'ldi... .

Oradan qancha vaqt o'tgani ma'lum emasdi. Axiyri, u chuqur etagida, yuzini nam tuproqqa suykab o'tirganini payqadi. O'rnidan qo'zg'oldi"¹⁴.

Sadirjon o'rnida bo'lgan har qanday inson, qanday voqea yuz berganini aniqlashga, biron chora ko'rishga uringan bo'lar edi. Mana shunday vaziyatda qahramonimiz atofdagilardan najot izlaydi. Uning o'y – hayolida kimdir bu binoni g'oyib bo'lganini, ko'rgan, bilgan border – deya, qahvahonaga yo'l oladi. Uni tamog'idan hech narsa o'tmasa ham, u yerdan biron narsa xarid qiladi. Bu yerga odamlar og'zini poylash maqsadida kirgan edi. Ammo u kutgan natija chiqmaydi.

Odamlar, nari borganda, bozor-o'char turmush qiyin bo'lib qolgani haqida gaplashishar edi. Odamlarning loqaydligi Sadirjonni tinchini buzar edi. Nahotki,

¹⁴ O.Muxtor. "Ming bir qiyofa". T.1994.64 - bet.

ro'parasida g'oyib bo'lgan binoning yo'qolganini birgina Sadirjonni o'yga toldirar edi.

Shu o'rinda, nihoyasiz savollar tug'iladi?

Bu bino jamiyatdagi odamlar uchun shu darajada ahamiyatsiz-ki, u binoning yo'qolib qolishi, odamlarni hayratlantirmaydi. Balki bu binoning odamlarga foydasidan ko'ra ziyoni ko'proq tekkanligidadir. Sadirjon, Gulhumorni tarix binosida ishlashiga tish-tirnog'i bilan qarshi edi.

Bu tashkilot nafaqat odamlar hayotiga, balki ikki sevishgan qalblarning o'rtasiga sovuqchilik tushirgan – deb, hisoblayman.

Sababi Sadirjon va Gulhumorni bir-biriga yaqinlashtirgan shaharning sharq tarafidagi joylashgan avliyo maqbarasi boshidagi chashma hisoblanadi.

“Tarix va Madaniyat” tashkilotning a'zolari, shu jumladan, Gulhumor ham, shu maqbaraning buzilishiga jonbozlik ko'rsatadi. Gulhumor og'ir hastalikka chalinib, uzoq vaqt shifo izlaydi. Odamlardan Sadirjon haqida eshitadi va shu zahoti uning qabuliga keladi.

Sadirjon ko'plab bemorlari qatori Gulhumorni ham chashma suvidan iste'mol qilishni tavsiya qiladi. Oradan biroz vaqt o'tgach Gulhumor sog'aygani haqida, Sadirjon xabar topadi.

Xalqimizda “Tuzini yeb, tuzligiga tupurdi” degan gap yuradi.

Gulhumor ham o'zi shifo topgan chashmani buzilishini oldini olmaganligi, bu uning xatosi hisoblanadi. Sadirjon bu voqealardan xabar topib, bu harakatni to'xtatishga urinadi, ammo kech edi... . Shu voqealardan keyin ular orasiga sovuqchilik tushadi.

Mulkobodda bo'lgan bu voqea, huddi odamlarni kar va ko'rdek holga keltirib qo'yganga o'xshaydi.

Mayli shahardagi odamlar o'z tashvishlari bilan banddir. Balki, odamlarni tirikchiligi yoki ibodat qilayotgan maqbarasini buzayotganligi uchun, ularga qarshi kurasha-kurasha charchagan insonlar uchun ham oddiy holatdir. Sadirjon bu binoni ulardan so'rasa, balkim uni jinniga chiqarishlari tabiiy, albatta.

Bu voqeani o'qib, har bir kitobxonda savol- savol va yana savol kelaveradi. Sadirjon uchun fojeali ko'rinayotgan voqea, shahardagi vayronalarni ko'rayotgan insonlarga yangilik emasday tuyuladi. Sababi Sadirjon ularga bu binoni yo'q ekanligini ko'rsatganda ham, ular bunga ishonishmaydi. Hatto o'zini ishonishi, ham qiyin. Chunki dildirab turgan shifoxonasi va uning yonidagi daraxtlarga ham shikast yetmagan. To'qqiz qavatli bino yonida joylashgan shifoxona ham o'z joyida. Faqat Tarix binosi esa... .

Bunday vaziyatda inson, boshini changallagancha tushimmi? yoki o'ngimmi? degan savolni o'ziga berib charchaydi.

O'ylab qaraydigan bo'lsak, tashkilot a'zolarining ishi, faqat shaharni obodonlashtirishga qaratilgan. Tashkilot Tarix va Madaniyatni gullatish shiori ostida qadimiy obidalar-masjid va madrasalarni buzish, ming yillik ko'rkam hovuzlarni ko'mib tashlash, qabristonlarni toptash, ota-bobolardan qolgan eski kitoblarni yoqish bilan shug'ullanardi.

Yoki bo'lmasa tashkilot a'zolari har oy kamida bir marta o'quvchilarni bilim dargohidan, ishchilarni ishlagan joyidan shahar markaziga haydab kelib, ashula bayramini o'tkazishar edi.

Bu voqealardan so'ng oradan bir oz vaqt o'tadi. Sadirjon asta-sekinlik bilan, ko'nika boshlaydi.

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi?

Bu voqeaga balki, oradan biro y vaqt o'tgandir, shahardagi odamlar bu binoni yo'qolganiga hayratlanmadi. Yuqorda aytganimizdek, tashkilot a'zolari qadimiy obidalarini buzib, oyda bir marta bayram o'tkazishar edi.

Nega, ular ham bino tashqarisiga chiqib, ishlarini davom ettirmayapdilar?

Chunki... .

Bu bino shahar ichida shahar, mamlakat ichida mamlakat edi!

Tashkilot a'zolarining Mulkobodda hovli-joyi bor. Ammo ular ba'zan oylab-yillab o'z uylaridan xabar olishmasdi, kursi qo'ldan ketmasin, shu ishdan uzilib qolmaylik, deb koshondan deyarli chiqishmas edi. Bu bilan ularni oila, bolachaqaqani unutishgan demoqchi emasman. Aksincha, "Ot o'rnini toy bosar"

deganidek, ularni maqsadlari bizadan ish o'rgansin, keyinchalik shu yerda o'mashib qolsin, deb bola-chaqalarini ham ko'chirtirib kelishgandi. Ular shu koshonaga shu darajada bog'langan edilar-ki, hatto koshonasiz hayotlarini tasavvur qila olmas edilar. Xulosa qilib aytganda, ishdan ham ko'ra ko'proq, koshonada yashash uchun butun sharoit mavjud edi.

Hatto ular bolalarini dam olish kunlarida, istirohat bog'lariga olib borishga hojat yo'q edi. Chunki hashamatli binoning birinchi qavati – gulzor, bog'. Bu yerda har-xil gullar, bo'yga o'sib chuqur ildiz otmaydigan mevali va mevasiz daraxtlar ko'zni qamashtirib yashnab yotar edi.

Xizmatchilarga shu darajada e'tibor berilgan ediki, hatto hashamatli binoning ikkinchi qavati ularning farzandalari uchun ajratilib berilgan edi.

Ular keng va yorug' xonalarda yotib-turib, oq ko'ylak kiygan ayollar ularga saboq berishar edi. Navbatdagi qavatlarni esa xizmatchilarning o'zlari egallashgandi.

Bu qavatlar hammaga birday taqsimlanmagan, ularning mavqeyiga ko'ra xonalar bitta, yoki ikkita, katta yoki kichik qilib taqsimlangan. Beshinchi qavatni esa aloqa bo'limi-yu, shu bo'lim qoshidagi telefon ustaxonasi band etgandi. Shu o'rinda odamlar beparvoligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Hashamatli bino, sahroga ko'chib ketib, to's-to'polon bo'ladi-yu, balki aloqada uzilishlar bo'lgandir. Aloqa bo'limlarida mana bunday tabiat xodisalaridan keyin, qandaydir nosozlikalar uchrab turishi tabiiy hol. Tashkilot a'zolari esa, mamnuniyat bilan o'z vazifalarini sidqidildan bajarayotgandek, faoliyatlarini davom ettiraveradilar.

Aytib o'tganimizdek, ularga barcha-barcha sharoitlar yaratilgan. Marmardan tiklangan binoning oltinchi qavati tashkilot a'zolari, nafaqat a'zolari balki ularning farzandlari uchun oshxona, dam olish kunlarida mutoala qilish uchun kutubxona, ularning salomatligiga qayg'uradigan tibbiyot hodimlari ham, mana shu qavatda joylashgan edi. Qolgan yuqori uch - qavat idora. Yettinchi, sakkizinchi qavatlarda lavozimlariga ko'ra xonalar taqsimlanib, oddiy xizmatchilar joylashgan edi. So'ngi e'tiborni jalb qiladigan qavatda esa tashkilotning bosh rahbari va uning ikki

o'rinbosari o'tiradigan keng - mo'l shinam xonalar; majlis o'tadigan saroy joylashgan edi.

Qiziq joyi shundaki, agar shamol, yomg'ir yog'sa, o'ziga yarasha tovushi, yoki bo'lmasa shamol derazalarni sindirishi, yomg'irni tarnovdan tushining ovozi tashkilot a'zolariga, eshik yonida turgan qorovullar ham sezishmadi-mikan? degan savol odamni qiziqtiradi.

Shamol bexosdan quturib-telbalangan kunda markazdagi ulug'vor koshonada hayot shunday davom etayotgan edi.

Bundan ham qiziq joyi: koshona shamolda o'rnidan ko'chib, boshqa uzoq bir manzilga borib qo'nganiga qaramay, bu yerda hech bir narsaga shikast yetmagan; stollar, telefonlar, qog'ozlar – barchasi o'rni-o'rnida qolavergan edi. O'z tirikchiligi bilan qattiq mashg'ul bo'lishganidan qilt ham etishmagan.

Ha, darvoqe, koshonani beshinchi qavat aloqa bo'limi edi. Aloqa bo'limi shahar bilan bog'lab turar edi. Shamoldan so'ng simlar uzilib, faqat telefonlar ishlamay qo'ygan edi xolos.

Tashkilot a'zolari rahbari tushga yaqin, ish yuzasidan shaharga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lib, uni tasodifan payqab qolishadi. Shundan so'ng, kotiba orqali telefon ustalarini chaqirishadi, ular u yer, bu yerni ko'rib, kabellarni yangilamoqchi edi, shunda telefon ishlamayotganini aytishadi.

Shu oradan biroz vaqt o'tgach, Gulhumorni hayolidan turli xil o'y-kechinmalar o'tar edi. Asta - sekinlik bilan Gulhumor hayotga loqaydlik bilan qaraydigan bo'lib qoladi.

Hatto, u birinchi qavatga tushib, Sadir akasini so'raydi. Ikki-uch marotaba eshikdan ko'chaga mo'ralagan, shu kunlar unga negadir astadan nari tomon odatdagi shahr emas, cheksiz ummonmi, sahromi bo'lib ko'ringan edi.

Shunda ham, u jiddiyoq e'tibor bermaydi. O'zini ayblaydi. Meni ko'p o'ylanib aqldan ozayapman shekilli, deb o'ylagan, ortiq tashqariga ham qarashga yuragi betlamaydi..

Gulhumorning oldida ikki yo'l bor edi. Shu o'rinda kitobxon hayolidan bir fikr o'tadi, ya'ni Gulhumor Sadirjon bilan birga ketadi, – deb o'ylaydilar. Aksincha,

unday bo'lmaydi. Gulhumor ikkinchi bir yo'lni tanlab bo'lgan edi va Gulhumor o'zi mehr qo'yib ishlayotgan tashkilotda qoladi.

II-bob. Anvar Obidjonning “Usta Gulmat” obrazi adabiy mistifikatsiya sifatida

Ba’zan adabiyotga ilmiliqqina bo’lib kirib kelganlar ham uchraydi. Bu xil yozuvchilar umr bo’yi bironta o’quvchini qalbini isitilmay o’tib ketadi. Kitobxon yuragiga harakat berolmaydigan ijodkor esi borida etagini yig’ishtirib, boshqa tirikchilik payiga tushgan ma’qul.

Adabiyotga olovdek yonib kirganlar bor. Ijod olamini ana shular yoritib turibdi.

Hayotda ba’zan yuragimga qil ham sig’maydi deb nola qilamiz. Ana shu qil sig’maydigan yuraklarga adabiyot bemalol sig’ib ketaveradi. Ayniqsa, hajv ba’misli roentgen nuri. U inson bolasining jamiki a’zoyi-badanini xatosiz topadi, yoritadi. Nainki – yoritadi, hatto yuragini kaftiga qo’yib ko’rsatadi.

Ustoz hajvchilarimiz G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor, Sobir Abdullar ana shunday yuzduzi issiq, satrlari kulib turadigan ijodkorlar edilar.

Shu ustozlar izidan yurib o’z yo’lini topib olganlar safiga yana bir talantli hajvchi Anvar Obidjonning kelishi hammamizni quvontiradi. U hajv dargohiga bir etak kulgu ko’tarib keldi.

O’zbek adabiyotida vatanparvarlik mavzusi haqida gap ketar ekan, zamonaviy bolalar adabiyotini chetlab o’tib bo’lmaydi. Ona yurtimizning ertasini, ona yurtimizning ertasini, mustaqilligimizning kelajagi ko’p jihatdan bolalarimizni qanday inson qilib voyaga yetkazishimiz hal etadi. Shu nuqtai nazardan, bolalar adabiyotining muhim vazifalaridan biri – haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalshdir.

Iste’dodli shoir Anvar Obidjon ijodi o’zbek bolalar adabiyotida o’ziga hos voqeadir. Shoirning turli janr, turli mavzularda yozgan asarlaridagi bosh g’oya – vatan. Uning g’aroyib turkum dostonlarida, qiziqarli qissa va pyesalarida, sehrli ertaklari, qisqa, ravon she’rlarida bir aqida ustuvor, bu – Vatanni sevishdir. Shoir vatan haqida to’lib-toshiqib, to’lqinlanib kuylaydi, hayotimizdagi muhim ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy masalalarni bolalarning qobiliyatiga moslab, ularga tushunarli, soda va aniq qilib yetkazib berishga urinadi.

Anvar Obidjon mulohazakor, sokin shoir. Ko'kragiga urib: "Men O'zbekistonni jonimdan ortiq sevaman!" – deyishdan ko'ra bolalarga ular uchun shu tuproqdan muqaddasroq maskan yo'qligini anglatishni afzal biladi. Bu urinishlar esa zoe ketmaydi: murg'ak qalblar vatanni sevish, uni ardoqlash tuyg'ularini uyg'otadi, ular asta-sekin haqiqiy e'tiqodga aylana boradi.

Biz bilib-bilmagan dunyo uzluksiz o'sish-o'zgarish jarayonidan, hayot esa tuyg'ular, g'oyalar ko'rinishidan iboratdir. Ijodkor jamiyat va insoniyat oldidagi burchini qalb tubidan his qilgandagina o'zini to'liqlantirgan hodisalarni o'zgalarga ham yetkazish istagi unda ham unda ehtiyojga aylanadi. Ana shu ehtiyoj tug'yonida chuqur vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan jozib satrlar dunyoga keladi.

Anvar Obidjonning zavq, ilhom va muhabbat bilan yozilgan asarlari bir yo'la hamma vazifani vijdonan ado etadi: bu to'plamlar ham quvnoq do'st, ham jiddiy tarbiyachidir. Uning she'rlarida g'alati, yoqimli hazil-mutoyiba, yashirin achinish, kulib yig'lash, muntazam qat'iyatlilik, sirli iboralar, kutilmagan tashbehtar orqli har qanday kitobxonni o'ziga rom qiladigan qudrat bor.

Anvar Obidjon nihoyatda jiddiy mavzular va fikrlarga ertakona ruh, biroz yengil tuyuluvchi mutoyiba, sirlilik baxsh etadi, so'ng kutulmagandajiddiy xulosa chiqaradi. Odatda savol-javob, bahslarda haqiqat tug'uladi. Bolalar turmush ikr-chikrlarini o'zlaricha qabul qiladilar, o'zlariga hos fikrlaydilar. Ularni borliqqa munosabati ham o'zgacha; nihoyatda samimiy. Shoir ana shu fikrlash va samimiyatdan chuqur mantiqli umumlashma yaratishi kerak. Anvar Obidjon bolalar dunyosiga katta muammolarni dadil olib kiradi, ularni hal qilish yo'llarini sergaklik va teran tafakkur ila ko'rsatadi. Shoir uchun bu yo'riqlar bolalarning qiziqish doirasini kengaytirish, ularning dunyoqarashi tezroq shakllanishiga yordam berish, foydali orzularni paydo qilish va ro'yobga chiqarish vositasidir. Topqirlik va ravonlik esa she'rlarga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi. Shoir she'riyatning ichki imkoniyatlarini kengaytiradi, uni jangavor ruhi, shirin tili, o'ynoqi ohangi asarning ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Shoir ijodi avvalo hayotga qizg'in munosabati shakllanayotgan insonning murakkab, boy ruhiy dunyosi, bu dunyoning ajib silsilalari, orzu-armonlarini haqqoniy ifodalashi, mavzuning kengligi, janrlarning rang-barangligi bilan e'tiborni tortadi. Hayotiylik asosiga qurilgan she'r esa, kitobxonni o'ziga mahliyo qilish, o'z ortidan ergashtirish qudratiga ega bo'ladi.

Agar kitob qahramonlarini sevib qolsak, hech ikkilanib o'tirmay aytish mumkinki, bu o'rtamiyona emas, chinakam yahshi asar, dard bilan, hayol bilan insoniyatning taqdiri uchun qayg'urib yozilgan asar.

Anvar Obidjon hajv dargohiga bir etak kulgu ko'tarib keldi, desak adashmaymiz.

Chunki adib haqida ustozlar ijobiy fikrlar bildirganlar.

U to'rtta odam orasiga tushib qolsa ularni hammasini og'ziga qarata oladigan, belbog'idan tortib silkitsang qo'ynidan kulgu to'kiladigan binoyidek hajvchi bo'lib yetishgan. Quvnoq yumor, tagdor hajv, kinoyali qichqiriqlarga boy ushbu g'azal o'z nomi bilan "Usta Gulmat".

Bu Anvar Obidjonning birinchi hajviy to'plami. To'plamdagi jamiki g'azallarni Anvar o'tgan asrda yashab, ijod qilgan Usta Gulmat degan shoirdan o'g'irlab olgan. U shunchalik noshud o'g'riki, hatto g'azalning oxirgi satridan Gulmatiy degan joyini o'chirib, Anvariy yoki Obidiy deb qo'yishga ham fahmi yetmagan. Adabiyotimizda plagiat, ya'ni adabiy o'g'rilik ko'pdan yo'q bo'lib ketgan edi.

Adabiyot ahli bu o'g'irlikni juda sog'inib ketganmi, Anvar obidjonni Usta Gulmatdan o'g'irlab olgan g'azallarini ko'rib juda suyunib ketdi.

Avval bir hikoya aytib beray.

Bir odam o'g'irlik orqasidan boyib ketipdi. Bog'-rog'lar qilibdi. Besh-o'n xizmatkorlar yollabdi. Ammo u shuncha boylik ortirishiga qaramay, o'g'irlik yillarini qo'msar ekan.

Ba'zi-ba'zida kechasi o'z uyining devoridan oshib tushib, "ushla o'g'rini!" deb qocharkan.

Ammo Anvar Obidjon o'sha o'g'ri boyga o'xshab, o'zini-o'zi talab yurgan ekan. Keyingi izlanishlar usta Gulmatning Anvarning o'zi ekanini, xotinidan qo'rqib, Usta Gulmat nomi bilan she'r yozib yurganini isbot qilib berdi. Usta Gulmat ba'zan o'ta quv, ba'zan o'taketgan darajada landavur, ba'zan soda mug'ombir... undagi mana shu hislatlar hajv uchun juda qo'l kelgan. Anvar qahramoniga o'ziga bop til topgan, she'riy uslub ham topgan.

G'azallarning har bir bandidan, so'zlaridan, vaznidan, hatto qofiyalardan ham Usta Gulmatning suvrati ko'rinib turganga o'xshaydi. Bu g'azalni Usta Gulmatdan boshqa shoir yozishi mumkin emas, deb o'ylaysiz.

Yana shuni aytish kerakki, Anvar o'zining galdir qahramonidan juda ustalik bilan foydlangan.

Gulmat yigirma yildirki, adabiy aholi orasida javlon uryapdi, o'zligini tinimsiz namoyan etib bormoqda. Gulmat g'azal bitadi, muxammaslar yaratadi, muloqotlarga qo'l uradi, fardlari bilan kitobxonni lol qoldiradi. Zurafo, ahli dark, urafolik xalqimiz tabiatiga singib ketgan, shu toifadan bo'luvchi Gulmatshunos Burundor Tusmoliy uncha-muncha shoirni ijodkor, g'azal deb taqdim etilayotgan bitikni asar hisoblamaydi. Gulmat g'irt dumbul shoir, g'azallari g'azalga o'xshamaydi, muxammas, fardlari omonat, soxta. Gulmatga g'azalnavislik shabadasi sal-pal tegib o'tgan, goho vazn ohangini, vazn talabini his qilib qoladi.

Gulmat Shoshiyning asosiy fazilatlarini goho shundaki, u faqat qorni, maishatni, turgan-bitgani ayollarni o'ylaydi.

Gulmat o'zini faqat Shosh shoiri deb biladi. Bu shahri azimning xadra, chorus, Qatortol, Ko'kcha, Eskijo'va, Sabg'on, Labzak, Do'mbirobod, Shayhontohur, Beshyog'och kabi joylarini xo'b o'rgangan, g'azallariga kiritadi. Shoirimiz mahalliy hududlardan bir paysa bo'lsa-da chetga chiqmaydi. Gulmat noskash, shishaga o'ch, qiz-juvonlarga munosabatda besuyak, lozim bo'lsa munofiqlik qiladi, yolg'onga to'n kiydiradi.

Barcha adiblar qatori Gulmat tanqidchilarni yomon ko'radi. U tanqidchi G'ishmatni birinchi dushmani deb biladi. Bu tanqidchi nomi Gulmat Shoshiyning g'azal, muxammas, muloqotlarida bot-bot uchrab turadi.

“Muxammas raqam 5”ni aslida “G’ishmat dastidan dod!” deb nomlash kerak edi. Qarang Gulmat G’ishmatni qanday fosh etadi.

Chin buyuk shoir azal ko’rdi har qayda jabr,

Ho’ja qul Ahmad qochib lahm aro topdi sabr.

Mashrabo quvg’in yurib, kezdi yuz sahro – Kabir,

Zo’r o’rus shoirlarini qildi oqposhsho Sibir,

Shum falak Gulmatni ham G’ishmatga surgun ayladi.

Gulmatni fardlari alohida bir olam.uning “Fard raqam 5”ni Gulmatning shu darajada so’zga boy ekanligidan dalolat beradi.

U kulgu orqali har qanday ishni yaxshilik bilan tugashini tarafdori.

Qo’rs sigirni iydurg’a xashak keltir,

Qo’rs juvonne eriturg’a bezak keltir.

Bundan tushunish kerakki, uning yozganlari faqat bir mavzuda qotib qolmagan. Bir qaraganda, bu fard shoirni, shoirning boshqa asarlarida bo’lgani kabi bu sherda ham, jonivorlarga nisbatan, insomiy munosabat, ayoliga bunday vaziyatda nima qilish kerkligini shu qisqagina fard orqali ochib bergan.

“Fard raqam 15” Gulmatiy donishmandligi, so’z qo’llash mahorati, topqirligi cho’qqisi. Farddagi “keting” ning qat-qat ma’nodorligini aytmayisizmi? Bu so’zning shulasi “old” so’ziga ham tushub turishi-chi? Fardlarni o’qib, avvalo chuqur o’yga botasiz, so’ng fard ma’nosi ochilib, na’sha qila boshlaydi.

Yoki bo’lmasam uning “Fard raqam 12” sini o’qib, uning uchun qachonlardir, o’zi kutgan kunlari kunlarini kelishidan umidvorligidan umidvorligini ifoda etadi:

Yozmas so’zim qolsaki bas yozmalanib,

Ertami-kech tarqaladur bosmalanib.

Uning fardlarini o’qir ekanmiz xohlasak, xohlamasak ham yuzimizda beixtiyor kulgu paydo bo’ladi. “Fard raqam 8”da u maishatparastlar ustidan kuladi.

“Keldim gunoh yuvkali”, desam borib imomga,

Imom dedi, “Machitni aylantirma hammomga”.

Gulmat nihoyatda jiddiy mavzular va fikrlarga biroz yengil tuyuluvchi mutoyiba, sirlilik baxsh etadi, so'ng kutulmaganda jiddiy xulosa chiqaradi. Biz buni "Fard raqam 4"da ko'rishimiz mumkin.

Boyni qizi do'mboq esa, manga nima, okosi?

Manga qoshin qoqsa agar, sang anima okosi?

Qiziq, Gulmat haqoda shuncha ma'lumot kimtomonidan saqlanib yoki yozilib bizgacha yetib kelgan?

Gulmat o'zi kim?

Garchi u ijod gashtidan is olib, nazm bo'stonida o'ralsh boshlaganidan keyin o'rtamiyona ismining ortiga Shoshiy degan dabdabali taxallusni tirkab qo'ygan bo'lsa-da ammo, uning Farg'ona vodiysidan kelib, Toshkentda turg'unlashib qolgan kimsa ekanini biz yahshi bilamiz. Bu fikrni aytish uchun shoirni raqam 1va raqam 49 g'azallaridagi "Oltiariq", "Farg'ona" degan so'zlariga tayanish bilan chegaralanib qolsak, davomiz puchroq chiqqan bo'ladi. Gulmatga ancha yil qondoshlik qilgan shaxsni esdaliklari saqlangan, mana shuni dalil desa bo'ladi.

"Beparxez Gulmat turp pullamoq ishtiyoqinda vodiidan Toshkentga kelib, poygakdagi hujramizni ijaraga olib erdi, - deya yozadi shoirning sobiq qayin og'asi mulla Akobir o'z esdaliklarida". Bu orada opasi ko'ziga issiq ko'rinib, bozorchi ulfatlari vositasida sovchi qo'yishga botinadi. Akobirning dadasining dadasi asli qishloqdan bo'lganligi sababl, sho'rlik Gulmatga yon bosadi, uni ichkuyov qilib oladilar.

Mulla Akobirning yozuvlariga asoslanib, yana shularni aytish mumkinki, Gulmatning ota kasbi sataroshlik bo'lgan. Ora-sirada yerlik dehqonlarga turp urug'I pullashbilanhamshug'ullanib turgan.

Hamyoni og'irlashib, alohida hovli sotib olganidan so'ng uning eski dardi qaytalanaib, yana qalambozlikka ruju qo'yadi.

"Gulmat xumboshning dimog'i qo'lyozmalar qappayishiga monand shishib borurdi, - deb yozadi mulla Akobir. – 1881-yilga kelib manmanligi on qadar gazakladikim, nazm nafosatlarini ilg'ay bilmaslikda ayblab, pokdamon opamizni qo'qqisdan taloq qildi".

Yuqorida aytib o'tilganidek, ayolparvar shoirimiz uchun bu bor-yo'g'i birinchi "ayriliq" edi xolos. Gulmat o'zining g'azallarida bosh qahramon rolini ijro etgan.

Duo qildim gahi yorni, qarg'adimgah rahmsiz deb,
Aql bir yon, jahl bir yon, fikr ayron o'rtada.
E, uka, Gulamtiy sevmish bir otinch navjuvonni,
Otin bir yon, xotin bir yon, akang sarson o'rtada.

Gulmat Shoshiyning bir qadar savodsizligiga panja orasidan qaragan, to'plamini shunchaki kuzatamiz.

Usta Gulmatning ishqiy sherlari anchagina. Ular ko'p xollarda bachkana istirob, soxta firoq, mayday-chuyda ko'ngillxushgliklarga, tashnalik hissi bilanqorishib ketgan.

Bo'loyin mard, kelib jono mani o'ldirsa o'ldirsin,
Sevgidan chang yuqubdir, bas, oni dildan supurmasman.
Buyuk ishqingga, e, Gulmat, u tannoz tufladi ketdi,
Og'izda – pulg'a kelgan nos, shu bois man tuflamasman.

Ammo devonavash Gulmat, ayni paytda, sal narsaga butkul ruhi tushib ketadigan anoyilardan ham emas.

Gulmat doimo eziluvchi mehnat ahli tarafda turub so'z aytadi. "Azimboyning uyi, hay-hay, qaysi sultonni eslatgay", deb boshlanuvchi g'azalining pxirgi baytini olaylik.

Yig'ib qimmat matohlarni davr surging kelar Gulmat,
Vale kissangdagi ahvol sanga arzonni eslatgay.

Ko'rinib turibdiki, ro'zg'orag uchma-uch yetkazib, nochorgina kechirayotgan o'n minglab oddiy mehnatchilarga shoirimiz darddosh va fikrdosh. Chunki, uning o'zi ular orasidan kelib chiqqan, endilikda uning haqiqiy she'rxonlari ham o'shalar.

Mulla Akobir bu holni shunday izohlagan edi: "bizga ma'lum va mashhur shoiri kalonlar ko'proq gul ila bulbul haqinda rohatlanib yozar edilar. Gulmat

bachchag'arni ko'ringki, "har ikki gapning birida noskashlikni pesh qiladi.ushbu holat oning past tabaqadan chiqqan andi ekanini isbotlamaydirmu?"

Gulmat Shoshiy ijodini avj pallasi el-yurtda ikki yoqlama zulm tobora kuchayib borayotgan davrlarga to'g'ri kelgan.

Ya'na shuni aytish kerakki, Anvar Obidjon o'zining galdir qahramonidan juda ustalik bilan foydalangan. U hamma gapni yumoristik til bilan jiddiy tarzda aytayotgandek tuyulsada, aslida maishatparastlik, dumbul falsafabozlik, gumrohlarcha dindorlik, hudbinlik, qabihona ig'vogarlik, loqaydlik, manmanlik, molparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, munofiqlik kabi illatlarni beayov masxaralaydi.

Anvar Obidjon ijodini kuzatar ekanmiz, uning "Usta Gulmat" g'azallari turkumi, huddi Muqumiyning "Sayohatnoma" asarini yodga saoladi.

Mulla Akobirning esdaliklariga murojat etadigan bo'lsak "Ho'kiz shoxida omonat turgan bexudud zaminning to'rt nafar buzruk hukmdorlaridan birisi, beshak-beshubha, Nikolay poshshodir. Oningdek hazrati mardikorlik borasidagi farmoni tabarruklari u yondin e'lon qilinibdurki, pixi qayrilg'an Gulmat buyondan safar hozirligini ko'rib, bir nnecha qanor turshakni poyuzg'a bosgancha musulmoniyadan g'oyib bo'libdur.

Lokin safarga ayvondor shapka ostinda jo'nag'an ul betaviq Toshkan, Jizzax ham Marg'ilon muzofotlarindagi qir'inbarot janjallar tiyilgach, endi boshqa po'latshoyi salla chandib yana Beshyog'ochga kirib keldi".

Bundan sezish mumkinki, oddiy sartaroshni emas, balki "katta zo'r shoirni" kelajak avlod uchun asrab qolishga qatiiy ahd qilgan Gulmat yurtda to mardikorlik g'alvalari sepsilguncha qadar chetroqda chakana savdo ishlari bilan shug'ullanib turishga majbur bo'lgan.

Gulmat o'ta ishni ko'zini biladigan. Uning "G'azal raqam 26"da, Gulmat faqir kishi – panada shioriga ko'proq amal qilgan.

Maqtagan oqposhshosi lol qildi mani,

Farmoni ul qaddimni dol qildi mani.

Shosh elidan ishga so'rabdur mardikor,

Muncha yuvosh ayladi, mol qildi mani?
Yoshni olar emish desa, hiyla topib –
Qo'ydim soqol, haftada chol qildi mani.
Poshshoniyam so'kdim qo'shib farmoniga,
Bolso'z edim, qalbaki bolso'z qildi mani.
Musht ko'tarib chiqsang agar, yetmas kuching,
Zo'rlab soqov, ko'r hamda shol qildi mani.
Gulmat kabi haqgo'y bilanolam go'zal,
Dunyo kelin, labiga xol qildi mani.

Bu g'azali orqali u o'sha davrdagi illatlarni kulgu ostiga oladi. G'azalni o'qib, Gulmat oqqoshshoni maqtaydi, ammo u birgina narsadan noliydi ya'ni farmoni qaddimni dol qildi,deb aytdi.

G'azalni o'qib Gulmat har qanday vaziyatdan chiqib keta olganligiga guvoh bo'lamiz.

Uni hiylasini qarangki, oqqoshsho yoshlarni ishga olar ekan desa, u tezda soqol qo'yib, haftada chol bo'lib qolganligini tan oladi. U o'zini ojiz tomonlarini ham qoralab o'tadi. U endi jamiyatdagi barcha illatlarga ko'z yumushini, soqov ham shol bo'lishni nazarga tutganga o'xshaydi.

Yuqorida biz Gulmatnig to'pori va dalliroq ekanini isbotlab bergan edik. Ammo aytsih joizki, u o'ta ham ahmoq bo'lmagan,atrofda ro'y berayotgan voqealarni baholi qudrat idrok etib, ularga qo'ldan kelgancha, g'azallari orqali xolis munosabat bildiradi.

Bu o'rinda eng avvalo, oddiy turpfurush dehqon va ko'chmanchi sartarosh, keyinchalik mayda savdogar va hardamhayol noskash bir kimsaningezuvchi kimu, eziluvchi kimligini ilg'ab olib, ularni sinflarga bo'lishda yanglishmaganiga qoyil qolasan kishi. Uning "G'azal raqam 55"da jamiyatdagi insonlarga ruhiy dalda berganga o'xshaydi. Gulmat ularga yonib-kuyib, amaldorlarga qarshi har doim kuch ishlatmasdan, boshqa usul bilan ham ularni yengishni o'rgatadi. Bu usul, albatta satiradir. Dushmaning ustidan kulolmasang, uni ham yengolmasligini, elni

tinchliligi uchun isyon qilishini, ezilgan xalq yana azob ko'rmasligini, buni oxiri borligini g'azalida ifodalagan.

Mazaxlay bilmasa yovni, bu el yengishni ham bilmas,
Eling xandonligi-chun qil agar isyon qilar ersang.
Azal kulgu bilan ezg'on ezarmonni ezilg'onlar,
Qo'yib g'ofil, kulib yulg'il ki yulg'uchdan yular ersang.
Badqovoq bek amaldorlar qilur tokay avomi xun?
Masxara aylab o'l, Gulmat, bul alamdin o'lar ersang.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, asli ota kasbi sartarosh bo'lgan Usta Gulmat "G'azal raqam 57"da o'sha davrdagi amaldorlarga o'z kasbini qurol qilib foydalanganligini guvohi bo'lamiz.

Sartaroshxonama kirdi sur volostnoy-semiz, sergap,
Dedi: "ishni bajar silliq, bu gal ko'proq sovun surkab".
O'zin ko'ziga ko'zguda ayladim aftini ko'z-ko'z,
Poralar yutqon tomog'in bo'yinsochiq bilan burkab.
Boshiga betyog'i chaplab, tarab burnidagi yungni,
Qulog'iga upo urdim, ko'k ko'ziga atir purkab.
Kallasi qirq yamoq bo'ldi, ya'na mo'ylab uzun-qisqa,
Pulin bermay, "tfu, cho'rt" deb ketdi Gulmatni u tergab.

G'azalda Gulmat faqat jamiyatdagi amaldorlarga qarshi kurashda birgina quroli nafaqt kasbi, balki qalami ham muhim ahamiyatga egaligini isbotlab bergan.

Anvar Obidjonning "Eng Yorug' dunyo" degan sarguzasht qissasi yosh adibning birinchi yirikroq kitobi. Bungacha u o'quvchilariga o'zining she'rlari va jajji hikoyalari bilan tanilgan edi.

Go'zal va haybatli tog'lar orasida Toshtaqa degan uylari pastak-pastak, ammo odamlari mehnatkash qishloq bor. Mana shu qishloqda bizning qhramonimiz xisoblangan Alamazon degan g'alati ismli kitobxon, hayolparast bir bola yashaydi. U ham Yom Soyer, Golberi Fen, Hoshimjon, Shum bola, Don Kixot, Robinzon Kruzo kabi dunyo adabiyotining jozibali qahramonlarini sevadi. Ular bilan juda yaqin oshna kabi ajoyib sarguzashtlar olamida yashashni orzu

qiladi. Alamazon ham o'zi yahshi ko'rgan jozibador va doim tirik qahramonlarga o'xshab boradi. Qissa bu haqida shunday hikoya qiladi: "Alamazonning yana bir xislati shu ediki, u biron-bir kitobni o'qib chiqqach, undagi bosh qahramonga beixtiyor taqlid qila boshlardi. Masalan, u "Hamletni" o'qib yurgan kezlari biroz parishonxotir va bosiq bo'lib qoladi. Ustozlar, "shumtakaga insof kirganga o'xshaydi", deb sevinib yurshganda u "shum bolani o'qishni boshlab yubordi-yu, yana aynib ketdi. "Spatrak"ni tugatgandan keyin esa sinfdoshi Karim ko'chirmachining boshini yorib qo'ygani haqida butun qishloqqa "mish-mish" tarqadi. Bundan xabar topgan maktab qilichbozlik to'garagining rahbari: "Menga shunday tirishqoq talaba kerak edi" deb uni to'garakka majburan a'zo qiladi. Dadillik va chapdastlik Alamazonning tug'ma qobiliyati edi. Ko'p o'tmay u maktabdagi mohir qilichbozga aylanib ketdi. Ammo qilichbozlikdagi obro'-e'tibor topgan bo'lmasin, raqibga ukol sanchish o'zgalar darvozasiga to'p kiritishchalik zavqli emas edi unga. Shu sabab bo'lsa kerk keyinchalik u to'garaklarga nomuntazam keladigan bo'lib qoldi. "Alvido qurol" degan kitobni o'qib chiqqach esa qilichbozlikdan butunlay voz kechib, yana futbolga berilib ketdi...

Shu tariqa, yozuvchi bizni mana shu g'alati ismili yosh qahramoninig qiziq olamiga olib kiradi. Darvoqe Alamazon degani o'zi nima? Qishloq to'ylarida, xususan, Toshtaqa qishlog'ining xalqi to'yda yoqiladigan baland gulxan alangasini "alamazon" der ekanlar. Alamazon demak, ko'kka o'rlayotgan bayram alangasi.

Qissani o'qir ekanmiz, Alamazon qissaning keyingi sahifalarida o'z nomini chindan ham oqlaydigan g'aroyib ishlar qiladi. Shum bolaning Tom Soyerning, Don Kixotning jabtovur bo'lgani, kabi Alamazonning ham ishma do'sti bor. Eshmat bitta narsa yaxshi ko'radi. Va yana bitta narsani yomon ko'radi. U to'yib ovqatlasnishdan beqiyos huzur oladi. "Arifmetikaga" esa insoniyat dushmani deb qaraydi. O'zini ko'p narsag urintirib yurmaydi. Ammo, aslida, laqma ham emas. Jek Londonning "Uch qalb" degan asarini o'qib chiqishgach, ularda katta xazina toppish ishtiyoqipaydo bo'ladi. Eshmat tilla topaman deb o'lib ketishga rozi bo'lmaydi.

- Alamazonning oftobda qoraygan yuzlarida kuldirdig'ich o'ynaydi;

- O'sha xazinani topib olsak bormi, odamlarga qanchadan-qancha yaxshilik qilish mumkin bo'lardi-ya!

Keyin, asosan, u qanday yaxshiliklar qilish mumkinligini sanashni boshlaydi. Birinchi navbatda yaylov etagiga 10 ming kishilik stadion quriladigan bo'ladi.

- Iye, iye – taajubdan ko'zlari olaydi Eshmatning, - qishlog'imizdagi odam ja borsa ikki mingtadir. Boshinga urasanmi munaqa stadionni?
- Keyinchalik odam ko'payib ketadi, sira ikkilanmay bashorat qildi Alamazon. – Masalan Orif tog'aning o'n bitta bolasi bor. Uning o'n bitta bolasi bor. Uning o'n bitta bolasiyana o'n bittadan bola ko'rai. Ularning bolalarining bolalari yana o'n bittadan. Hisoblab ko'rchi.

Eshmat o'zini huddi matematika darsida o'tirganday xis qilib, aftini bujmaytirdi... .

Mana shunday oliyjanob niyatlar bilan ikki oshna jandarg'orga yo'l oladilar.

Shundan e'tiboran yozuvchi bizni yer osti g'orining ajoyibotlari dunyosiga boshlab ketadi. Bir biridan sirliroq voqealar, sarguzashtlar boshlanadi. Ular nihyat, o'n ikki yilda bir ochilib yopiladigan sirli qoyalar orasidan o'tib, Yulduziston degan, ikki viloyatdan tashkil topgan yer osti mamlakatiga kirib qoladilar.

Bu mamlakatning binolari kumush, marmar va la'l-javohirlardan tiklangan.

Qizig'i shundaki, bu mamlakatda ekin sug'orish, don sochish degan gaplar yo'q ekan. Bug'doylar o'zi unib, pishib yotaverar ekan. Alamazon va Eshmat bu mamlakatda Hazrat Humo degan cholni qo'lida asirlikda saqlanadi. Hazrat Humo Yulduzistondagi ajoyibotlar haqida qahramonlarizga ko'p narsalar hikoya qilib beradi.

Ammo bu mamlakatda Tonus ismli Qo'tir Oltinchi degan g'oyatda injiq podsho saltanat tepasida o'tiradi. U o'zi isqirt bo'lgani uchun va isqirt yurishni yaxshi ko'rgani uchun butun mamlakat xalqini ham zo'rlab isqirt qildiradi. Yuvinish, ozoda yurish bu yerda butunlay taqiqlangan. Ozoda yuradiganlar zindonlarga tashlanadi., tavba qilib, isqirt yurishga vada berganlarga ozod etiladi. Hatto u o'zini yuzini ham yuvmaydi, nima emish? Yuzining kiri ketib qoladi, - deb

o'ylaydi. Bu mamlakatlarning shoirlari: "Yuvilmagan betingiz buncha chiroyli, mog'or bosgan etingiz buncha chiroyli", deb g'azal yozadilar.

Qahramonlarimiz ham mamlakatning mana shunday qonun-qoidalariga biri bo'ysunadi, biri esa yo'q. Alamazon bunday shartga rozi bo'lmagani uchun zindonband qilinadi. Eshmat esa Qo'tir Oltinchiga yordamchi qilib tayinlanadi.

Barcha ma'rifatli, adolatparvar, xalqparvar pok kishilar Yulduzistonning chekka Ajdarobod viloyatiga quvg'in qilinadi. Yuzduzistonliklar ongiga zo'ravonlik va jirkanch odatlar singdirilgan. Chunki bu o'lkaning bo'lajak podshosi go'dakligida eshak emib qo'ygan. Shaxzoda va podshox oilasini bu isnodan qutqarish uchun shaxzodani payg'ambar, eshakni esa xudo deb e'lon qilganlar. Odamlarni eshakka sig'inishga yuz yillab majbur qilganlar.

Mana shunday g'aroyib tabiat va g'aroyib istibdo, g'aroyib odatlar hukm surgan yer osti o'lkasiga tushib qolgan yosh qahramonlarda Yulduzistonni istibdoddan, isqirt zulmlardan, adolatsizliklardan qutqarish istagi alanga oladi. Alamazon Isqirt Tonus shox bilan jang qilisgga o'tlanadi. U ajoyib tadbirkorlik, ustalik, zo'r fantaziya ko'rsatib, mamlakatning xalqini kurashga o'tlanib, ularning ongini uyg'otib, g'alaba qozonishga erishadi. Ma'rifat va yaxshilik g'alaba qozonadi. Alamazon yorug' dunyo haqida sher yozib, uni yulduzistonliklarga o'rgatadi.

“Shoxning bitta siribor,
Yeti qavat kiri bor,
Bay-bay-bay!

Bulbul itga ulfatdir,
El boshiga kulfatdir,
Bay-bay-bay!... ”¹⁵

Bu voqealar o'qib beixtiyor, ishongin kelmaydi. Ammo yozuvchi bunga kitobxonni ishontira olgan.

^{15 15} A.Obidjon. Alamazon va Gulmat. T.Manaviyat. 1998y.

Yuldiziston ikki yirik viloyatlardan iborat bo'lib, shulardan biri – Tandir o'zining oltin saroy va la'l qasrlari, ko'rkam kumush binolari gavhar favvorolari, son-sanoqsiz marmar haykallari bilan ajralib turadi”¹⁶.

Asarda nomi berilgan mamlakat, hamda viloyat nomlari kishini etiborini tortadi. Anvar Obidjon adabiy mistifikatsiya usulidan foydalangan. Anvar Obidjon bu asarida qahramonlarini nomi yoki bo'lmasa joy nomlari ham g'ayri tabiiy. Joy nomlarini ham o'qib chiqib, haqiqatda ham bu voqea asrimizning qaysi davrida bo'lib o'tgan ekan-a? deb o'ylab qolamiz.

Joy nomlari ham Jandag'ar, Yulduziston, Ajdarg'or, Ajdarobod kabi nomlangan. Bu nomlar juda o'rinli qo'llangan. Chunki Jandag'ordahi voqealarni yodga oladigan bo'lsak, bu yerda qahramonlarimiz juda ko'p g'orlarga duch kelishadi. U yrda bo'layotgan voqealar juda hayratlanarli.

Adib mistifikatsiyadan shu daraja ustalik bilan foydalangan-ki, asarda keltirilgan voqealar, olib qaraganda bu hayotda ham bo'lmagan. Ammo yozuvchi kitobxonni qanday bo'lmasin, qay usul bilan bo'lmasin ishontira olgan. Va o'zi kutgan natijaga erishgan.

O'zi aslida qahramonlarimizni bu olamga kelib qolishi ham mistifikatsiya.

Haqiqatdan ham yozuvchi kitobxonga badiiy tasvir usullaridan biri bo'lgan mistifikatsiyani topishdek vazifani ochiq qoldiradi.

Asarni tahli qilishni davom ettiramiz... .

Uzoq davom etgan urinishlardan keyin Alamazon bu yurtida o'z o'rniga ega bo'ladi. Bu yurt fuqorolariga yorug' dunyo haqida gapirib beradi. Ular bilan ancha tanishib olgandan keyin Alamazon asta-sekinlik bilan bu yerga qanday maqsadda kelganini eslaydi. Aniqrog'i, bu mamlakatning malikasi hisoblangan xazina eslatadi. Bu mamlakatda Alamazonni podshoxni zulmidan qutqargan inson sifatida uchun ulug'lanar edi.

Mana shu vaziyatda yozuvchining yana bir mahoratini ko'rishimiz mumkin. Nega deganda bu mamlakatda xazina inson ismi hisoblansa, qahramonlarimizni o'g'ri yoki josuslikda ayblab, qatl etgan bo'lar edilar. Chunki qahramonlarimiz bu

¹⁶ A.Obidjon. Alamazon va Gulmat. T.Manaviyat. 1998y.32-bet.

yurtga faqat boylik topish maqsadida kelgan. Alamazon malika Xazinaga, maqsadini aytadi.

Shoir tabiat hisoblangan anvar obidjon mahorati mana shu yerda ko'rinadiki, qahramonimizni mohirlik bilan vaziyatdan olib chiqib ketadi... .

Kuzatadigan bo'lsak asarda mistifikatsiya ko'proq, tabiat tasvirida uchragan. Balki bu voqealar chindan ham uydirmadir yoki asrimizni qaysidir davrida kuzatilgandir degan savollar bilan olisha-olisha asarni yakunladim.

Umumiy xulosa

Bitiruv-malakaviy ishidagi mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelindi:

Hozirgacha adabiyotshunosligimizda mavjud manbalardan tashqari Anvar Obidjonning “Usta Gulmat” hamda Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanidagi Abdulla Hakimning Mashq daftari ham adabiy mistifikatsiya hodisasining o’ziga hos ko’rinishidir. Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanidagi Abdulla Hakimning “Mashq daftari” hamda Anvar Obidjonning “Usta Gulmat g’azallar turkumi adabiy mistifikatsiyaning o’ziga hos ko’rinishi bo’lib, o’zi yozgan asarni boshqa shaxs yozgan deb ishontirishga urinish natijasidir.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan adabiy mistifikatsiya kulguli, hajviy obraz yaratish hamda g’oyaviy-badiiy niyatini ifodalashga urinish natijasidir.

Ikkala muallif tomonidan qo’llangan mistifikatsiya ijobiy ahamiyat kasb etib Anvar Obidjon va Omon Muxtor ijobiy uslubini belgilashda o’ziga hos ahamiyat kasb etadi.

XVIII-XIX asrda Yevropa va Rossiyada keng iste’molda bo’lgan adabiy mistifikatsiya hodisasi XX asrga kelib o’zbek adabiyotida ham badiiy tasvir vositasi, uslub ko’rsatkichiga aylanib, keng iste’molga kiritildi.

Mavjud tadqiqotlarga tayanib Hamzaning “Boy ila xizmatchi”, Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” romanidagi Juzjoniy kundaligi, Anvar Obidjonning “Usta Gulmat” g’azallar turkumi va Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanidagi Abdulla Hakim mashq daftari milliy adabiyotimizda adabiy mistifikatsiyaning noyob yodgorligi sifatida ahamiyatlidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A “O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida” – T. “O'zbekiston”, 1995, 141-bet
2. Karimov I.A. Kelajakni jasoratli odamlar quradi. “Turkiston” gazetasi, 1999 yil, 17 fevral soni.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T. “Manaviyat”.2008 y.138-139-140 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. 2-jild. 2006 yil.
5. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009 y.156-157 b.
6. Qur'onov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. Akademnashr 2010 y.
7. O.Muxtor. Ming bir qiyofa.T.Sharq.1994 y.
8. Rahimov Z. “Ko'hna dunyo” romani poetikasi. Farg'ona 2005 y.
9. O'zbek tili va adabiyoti. 2012 y. №6
10. Til va adabiyot ta'limi. 2012 y. №11
11. Til va adabiyot ta'limi. 2012 y. №4
12. Farg'ona haqiqati. 2007 y. 2012 y. №11
13. Qo'qon sadosi. 2000 y. №11
14. Darslik. Adabiyot. T.2004
15. Qalb sadosi. 2010 y. №20
16. Internet ma'lumotlari
17. A.Obidjon. Alamazon va Gulmat. T. “Ma'naviyat”. 1998 y.
- 18.“Akang qarag'ay Gulmat” (Kattalarga qissa, hangoma, hajviy g'azallar. Tosh. “Yosh gvardiya” nashr 1987 yil, 10 b/t, qirq besh ming nusxa).
“Ramazon va Gulmat hangomasi” 1992
19. A. Rasulov “O'zlik sari yo'l”. T.: “Adib” 2012
- 20.A. Obidjon “Bezgakshamol” T.: 1985
21. X.To'xtaboyev. Polosonlik Anvar Obidjon. Xalq so'zi gaztasi, 2006.

22. G'ofurov I. So'z to'lqinlari. (O'ttiz yil izhori, 1987 y.)

23. <http://anvarobidjon.narod.ru/index.html>